**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**MAGISTRATURA BO’LIMI**

***Qo’lyozma huquqida***
***UDK:658.1***

**DADAXANOV DOSTON G’ANIBOY O’G’LI**

# IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI VA UNDA PENSIYA TIZIMINING RIVOJLANISH YO’NALISHLARI

Mutaxasislik: 5A231301-«Pensiya ishi»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

## DISSERTATSIYA

***Ilmiy rahbar:***

***i.f.n, dotsent G.Qosimova***

**TOSHKENT-2014**

**Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «G'aznachilik ishi» kafedrasida bajarilgan.**

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **i.f.n, dotsent G.Qosimova** |
| **«G'aznachilik ishi» kafedrasi mudiri:** | **i.f.n, dotsent A.Botirov** |
| **Magistratura bo'limi boshlig'i** | **i.f.n., dotsent U.Ortiqov** |

| M U N D A R I J A | | Betlar |
|---|---|---|
| **KIRISH** | | **3** |
| **I BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINING AHAMIYATI** | **10** |
| 1. | O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining ijtimoiy ximoya sohasiga ta'siri | 10 |
| 2. | Ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarining ahamiyati | 15 |
| 3. | O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslari | 21 |
| | I BOB bo'yicha xulosa | 27 |
| **II BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOIY MAQSAD XARAJATLARINING TAHLILI** | **29** |
| 1. | Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi | 29 |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarini tahlili | 34 |
| 3. | Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining tahlili | 40 |
| | II BOB bo'yicha xulosa | 50 |
| **III BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIY HIMOYA VA PENSIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI** | |
| 1. | Ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta'minotining xorijiy tajribalari | 53 |
| 2. | Aholini ijtimoiy himoyalashda ish haqini to'lash muammolarining hal etilishi | 63 |
| 3. | O'zbekiston Respublikasida islohotlar asosida pensiya tizimni rivojlantirish yo'nalishlari | 70 |
| | III BOB bo'yicha xulosa | 75 |
| **XULOSA** | | **77** |
| **ADABIYOTLAR RO'YXATI** | | **80** |

# KIRISH

**Tadqiqot mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni va nufuzining ortishi, ijtimoiy-iktisodiy sohalarning rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirilishi – bularning barchasida asosiy qonunimizning ahamiyati katta. O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, Vatanimiz taraqqiyoti va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning huquqiy kafolati bo‘lib kelmoqda. Aynan aholining ijtimoiy himoyalashning huquqiy me’yorlariga amal qilinishi va pensiya ta’minotini hozirgi holatini tadqiq qilish dolzarb vazifalar qatoriga kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov aytganlaridek, “...Hayot darajasi birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O’tgan 2012 yilda bu ko‘rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o‘sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi. Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko‘paydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘rtacha ish haqi iste’mol savatchasi bahosidan to‘rt barobardan ziyod oshdi. 2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizdan kam bo‘lmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda»[1].

Davlatimizning 2014 yilgi Davlat byudjeti va soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni hamda mamlakat YaIMning yuqori sur’atlar bilan o‘sishini ta’minlash, diversifikatsiya qilingan va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish bilan birga aholi farovonligi va turmush darajasini yanada oshirishga qaratilganligi bilan strategik ahamiyatga ega.

“.2013 yil - Obod turmush yili» Dasturni tayyorlashda ijtimoiy sohaga

---

[1]Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

qarashli byudjet tashkilotlarini turli manbalardan moliyalashtirish, “aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini echish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik xarakatini yanada rivojlantirish davlat tomonidan beriladigan aniq manzillik ijtimoiy ximoya tizimining takomillashtirish kabi vazifalar belgilandi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi aniq manzilligining kuchayishi mamlakatda amal qilayotgan pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Respublikamizda pensiya to‘lash uchun uch oylik ehtiyojni mablag‘ bilan ta’minlashga etarli zaxira jamg‘armasini tashkil etish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanyotgan shaxslar uchun majburiy badallar to‘lash tartibi va miqdorini belgilaydigan qonunlarni ishlab chiqish, ishlovchilarga tayinlanadigan pensiya miqdorining Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘langan majburiy badallar miqdori bilan bevosita bog‘liqligini kuchaytirish zaruriyati, pensiya tayinlashda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlar qismida fuqarolar qatnashuvining jinsiy belgilar bo‘yicha baholashda farqlarning mavjudligi, ish beruvchilar va yollanma ishchilar, shuningdek, turli guruhga mansub tovar ishlab chiqaruvchilarning Pensiya jamg‘armasiga to‘laydigan oylik badallari miqdori o‘rtasida farqlarning mavjudligi, qator imtiyozli pensiya ta’minotining saqlanib qolayotgani amal qilayotgan pensiya tizimida ayrim muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Pensiya tizimning institutsional mohiyatidan kelib chiqqan holda, bosh masala, ya’ni barcha mehnat pensionerlari moddiy ta’minotining barqaror mexanizmini yaratish vazifasi to‘liq hal etilmayotganligi ushbu muammoning alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan tadqiqot ishimizga «Ijtimoiy himoya va unda pensiya tizimining rivojlanish yo‘nalishlari» mavzusi tanlandi. Mazkur muammolarning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatga

egaligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

**Tadqiqot ob’ekti.** O’zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy himoyalash va pensiya tizimi tadqiqot ishining ob’ekti hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti.** O’zbekistonda va xorijiy davlatlardagi pensiya ta’minoti masalalari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqot ishining maqsadi – O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta’minotini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni kiritish hisoblanadi. Muallif qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishga intilgan:

- fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimining nazariy asoslarini o‘rganish;
- O’zbekiston Respublikasida fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, davlat pensiya tizimining me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatish;
- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibini tahlil qilish;
- Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyatini o‘rganish;
- ijtimoiy himoya va pensiya ta’minotining xorijiy tajribalarini o‘rganish;
- aholini ijtimoiy himoyalashda ish haqini to‘lash masalalarini tahlil qilish;
- O’zbekiston Respublikasida islohotlar asosida pensiya tizimni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari**. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar hamda amaliy tavsiyalar kelgusida mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasi va pensiya tizimini rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning asosiy masalalari:

- ✓ ijtimoiy himoya tizimi va fuqarolarga pensiya ta’minoti jarayonlari yoritilgan;
- ✓ pensiya tizimining xorijiy tajribalari tadqiq qilingan;
- ✓ iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

- ✓ O’zbekiston Respublikasida davlat pensiya tizimini, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

**Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida pensiya tizimini moliyaviy ta’minotining asosiy yo‘llari aniqlangan. O’zbekistonda majburiy sug‘urta, aholi daromadlari, Budjet kodeksi va Pensiya jamg‘armasini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarning mualliflari qatorida Q.Abduraxmonov, H.Abulqosimov, M. Abdullaev, G.Alimova, A.Bakaybaeva, A.Vaxabov, A.Vahobov, D.Vahobov, M.Ziyadulaev, Z.Karimova, T.Malikov, N. Majidov, M. Mirzamahmudov, M.Raximov, N. Raxmatullaeva, V.Nuritdinova, C.Umarov, B.Umurzoqov, N.Haydarov, G.Qosimova, A.Hayitov, U.O’rozov kabilarni ko‘rsatish mumkin[1].

Davlat maqsadli jamg‘armalarning moliyaviy asoslari, pensiya tizimi islohotlari, davlat tomonidan aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo‘llari, pensiya ta’minotining tashkiliy-moliyaviy asoslari, mehnat haqini hisoblash, pensiya tizimi daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar V. Antropov, I.Akperov, L.Androsova, M. Afanasev, A.Belenchuk, E.Vetlujskix, I. Krivogov, S.Golubeva, S. Kadomtseva, V.

---

[1] Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Mehnat. 2011. -535b., Abulqosimov H., Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Akademiya”. 2012. -455 b., Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. 8-12b., Alimova G. Ijtimoiy sug‘urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6.10-12b., ., Бакайбаева А. Начиление и выыплата заработой платы и приравненных к ней платежей в бюджетных оргнизациях. // Иқтисод ва молия. - Тошкент. 2013. № 7. – Б.47-53., Vaxabov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. T.: Sharq. 2003. -320 b., Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. − Toshkent, 2010.- № 4. 21-27b., Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. -556 b.; Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 660 b., Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b., Majidov N.M. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilish (pensiya tizimi misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. − Toshkent, 2003. – 23, Raxmatullaeva N. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati.// Moliya. -Toshkent. 2013.№5. – B.117., Nuritdinova V. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarini moliyalashtirish masalalari. // Moliya. -Toshkent. 2013. № 5. – B.11-14., Raximov M. Mehnatga haq to‘lash hisobidagi muammoli jihatlar. // Moliya. –Toshkent. 2014. -№1. – B.108-112., Umarov C. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Monografiya. -T.: “ Fan”. 2009. -124 b., Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Монография. − Т.: «Фан», 2005. − 175 с., O‘rozov U. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. \\ Moliya. -Toshkent. 2014. №1. –B.24-29., Qosimova G.A. Pensiya ta’minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. \\ Moliya. 2013 yil. 3-son. 108-112b., Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009. 212 b., Xayitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.

Karchevskiy, N. Saxarova, Smirnova, A.Neshchitoy, L.Okuneva, V.Polyak, L. Fedorov[1] va boshqalarning darslik, monografiya, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola va ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan.

**Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalari, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini himoyalash vazirligining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari ilmiy izlanishning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqikot ishida taqqoslash, guruhlash, tahlil, monografik kuzatish uslublaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy-amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar va tavsiyalar, aholini ijtimoiy himoyalash va pensiya tizimini yaxshilashga imkoniyat yaratadi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining chora-tadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida «Davlat maqsadli fondlarini boshqarish», “Xorijiy davlatlarda pensiya tizimi» fanlarining

[1]Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. История, организация, финансирование, проблемы / М., 2010. − 271 с.; Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”. 2010. - 640 с., Афанасьев М.П., Беленчук А.А., Кривогов И.В. Бюджет и бюджетная система. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. - 777 с., Ветлужских Е. Мотивация и оплата труда. Инструменты. Методики. Практика. –Москва. Алыпина Паблишер. 2013. - 152с., Ветлужских Е. Система вознаграждения. Как разработать цели и мотивация оплата труда. . – Москва. Алыпина Паблишер. 2013. -217с., Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. -М.: Российский университет дружбы народов. 2008. -27 б., Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с., Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с., Сахарова Н.П. Страхование. Учебное пособие.- М.: «ПРОСПЕКТ». 2007. -732 с., Поляк Г.Б. Государственные и муниципальные финансы. Учебное пособие.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2008. -375 с., Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2011. -703 с., Нещитой А.С. Финансы. Учебник. Москва. Дашков и К. 2008. -512 стр., Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с., Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. - 396с.

namunaviy va ishchi o‘quv dasturlarini tuzish va magiyastrantlarni o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- ✓ ijtimoiy himoya va pensiya tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq qilindi;
- ✓ aholining ish bilan bandligi va ish haqining ahamiyati ochib berildi;
- ✓ O’zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi o‘rganildi;
- ✓ ijtimoiy himoya tizimining xorijiy tajribalaridan foydalanish yo‘llari ilmiy asoslandi;
- ✓ pensiya fondining innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.
- ✓ ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot ishining hajmi 87 betdan iborat, tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishining kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi berilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqot ishining ob’ekti va predmeti, tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot ishining «O’zbekiston Respublikasida fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimining ahamiyati» nomli birinchi bobida O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati yoritib berilgan. Ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarining ahamiyati o‘rganilgan. Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimining huquqiy asoslari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot ishining «O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijtimoiy maqsad xarajatlarining tahlili» nomli ikkinchi bobida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi ko‘rsatilgan. O’zbekiston

Respublikasi Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari tahlil qilingan. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tahlil qilingan.

Tadqiqot ishining «O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya va pensiya tizimini rivojlantirish yo‘llari» nomli yakuniy bobda ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta’minotining xorijiy tajribalari ko‘rsatilgan. Aholini ijtimoiy himoyalashda ish haqini to‘lash masalalari o‘rganilgan. O’zbekiston Respublikasida islohotlar asosida pensiya tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari aniqlangan.

Tadqiqot ishining yakunida O’zbekiston Respublikasida pensiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

# I BOB.O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINING AHAMIYATI

## 1.O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining ijtimoiy himoya sohasiga ta’siri

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga, moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratish va ularni taqsimlash, har bir inson hayot tarzini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat doirasida rivojlanishning asosiy maqsadi iktisodiyot, bozor tuzilmalar, pensiya tizimini isloh qilish bilan birga o‘z fuqarolari daromadlarini oshirish, ularning turmush darajasini ko‘tarishdan iborat.

Ijtimoiy sohaning boshqarish organlari tizimi ilmiy usullarga tayanib, o‘z a’zolari turmush darajasini oshirish maqsadida barcha ijtimoiy jarayonlarga kompleks ta’sir qilishni amalga oshiradi. Fuqarolarning ijtimoiy mavqei, ularning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishi, aholi turmush darajasining uzluksiz oshib borishi, bozor munosabatlari, ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqalari davlatning xulq-atvor me’yori bo‘lib qoldi. Agar oldimizda milliy boylikni ko‘payishini, respublikaning mustaqilligini, aholining munosib turmush va ish sharoitlarini ta’minlaydigan qudratli, barqaror iqtisodiyotni barpo etish kabi buyuk vazifa turganligini, bunday iqtisodiyot O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov aytganlaridek, «…Strategik maqsadimiz bo‘lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning asosi»[1] ekanligini e’tiborga olsak, unda iqtisodiy - ijtimoiy boshqaruvdagi muammolar naqadar ko‘pligi va murakkabligi yanada ayon bo‘ladi. Ijtimoiy boshqaruv ko‘p funktsiyali bo‘lib, ijtimoiy soha tuzilmasiga mos keladi, ijtimoiy boshqaruv quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad;

[1]Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

- himoyasiz guruhlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (pensionerlar, bolalar, nogironlar);
- mehnat muhofazasi, ish haqi;
- oilaviy daromad;
- eng kam hayot darajasi;
- iste’mol savati;
- ish bilan bandlik;
- mahsulotlar va xizmatlar sohasi;
- ta’lim tizimi;
- tibbiy xizmat (ovqatlanish sifati);
- jismoniy tarbiya va sportning holati;
- madaniy muhit (moddiy-texnika bazasi).
- ekologik holat (havo, atrof-muhit);
- demografik holat (tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish);
- shaxsiy xavfsizlik;
- jinoyatchilik darajasi (jinoyatchilikka qarshi kurash);
- ijtimoiy aloqalar;
- onalik va bolalikni saqlash.

“...Avvalambor shuni ta’kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O’zbekiston o‘z iqtisodiyotini barqaror sur’atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta’minladi, dunyo bozoridagi o‘z pozitsiyasini mustahkamladi»[1].

Aholi turmush darajasini oshirishni iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, korxonalarning samaradorligini oshirish bilan bog‘lab o‘rganishda mehnat unumdorligi va ish haqi to‘lash o‘rtasidagi mutanosiblikka e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat unumdorligi – korxonadagi ishlovchilar

[1]Karimov I “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

mehnatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich, ish haqi esa aholi daromadlarining asosi, aholi turmush darajasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirish hisoblanadi.

O’zbekistonda bugungi kunda aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

1. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM ulushini yanada ko‘paytirish.
2. Aholi real daromadlari va bandlik darajasini oshirish.
3. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish.
4. Aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasini oshirish.
5. Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish.
6. Mehnat sharoitini yanada yaxshilanishiga erishish.
7. Ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish.
8. Tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash.
9. Ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish va pensiya ta’minotini yaxshilash.
10. Onalar va bolalar sog‘lig‘ini yanada yaxshilash.
11. Ekologik barqarorlikni ta’minlash.
12. Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni kuchaytirish.

Respublikamizda keyingi yillar davomida YaIMning mutlaq qiymatlardagi o‘sishi barqaror ravishda yuksalib kelmoqdaki, bu byudjet xarajatlari ijrosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko‘plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko‘rsatayotgan salbiy ta’siriga qaramasdan, 2013 yilda yuqori va barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblikni ta’minlaganimiz o‘ziga xos ijobiy ko‘rsatkich bo‘ldi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, agar mamlakatimizda YaIMning o‘sish sur’atlari 2000-2003 yillarda 3,8-4,2 foiz, 2004-2006 yillarda 7-7,3 foiz, 2007-2008 yillarda esa 9-9,5 foiz darajasida kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur ko‘rsatkichga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, o‘sish

sur’atlarida bir oz pasayish ro‘y berdi. Biroq, mamlakatimizda chuqur o‘ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat natijasida shakllangan omillar shunday murakkab sharoitda ham 2012-2013 yillarda YaIMning yuqori va barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolishni ta’minlamoqda. Inqirozlar bozor muvozanati va iktisodiy mutanosibliklarning buzilishi oqibatida yuz beradi. Inqirozlar yalpi talab va yalpi taklif, ishlab chiqarish bilan iste’mol, iste’mol va jamg‘arish, daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanat, mutanosiblikning buzilishi tufayli yuz beradi.

***1.*-jadval.**

**O’zbekistonda Yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o‘sishi**[1].

foizda

| **Yillar** | **Yapi ichki mahsulot** |
|---|---|
| 2000 | 103,8 |
| 2001 | 104,2 |
| 2002 | 104,0 |
| 2003 | 104,2 |
| 2004 | 107,7 |
| 2005 | 107,0 |
| 2006 | 107,3 |
| 2007 | 109,5 |
| 2008 | 109,0 |
| 2009 | 108,1 |
| 2010 | 108,5 |
| 2011 | 108,3 |
| 2012 | 108,2 |
| 2013 | 108,0 |

«Hozirgi iqtisodiy inqirozlar muvozanat buzilishi darajasida, tsikl fazalarining o‘zgarishida, o‘rtacha tebranishlar uzunligi, davlatning tsikllarni tartibga solishida qatnashishi va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy inqiroz butun iqtisodiyotga xo‘jalik faolligi keskin qisqarishining tarqalishi, bir necha oydan ko‘p muddatda davom etishi, ishlab chiqarish, ijtimoiy himoya, bandlik, real daromadlar, pensiya ta’minoti va boshqa ko‘rsatkichlarning pasayishida namoyon bo‘ladi»[2]. Evropa Ittifoqi tomonidan moliyaviy inqiroz keltirib

[1]O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
[2]Abulqosimov X.P. va boshqalar. Iqtisodiyot asoslari va O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar.-T.: Akademiya. 2011. –B.259-261.

chiqarayotgan turli oqibatlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Gretsiyada ishlab chiqarishning pasayishi kuzatildi. Evrohududdagi YaIMning pasayishi 0,3 foizni, Evropa Ittifoqi bo‘yicha esa 0,2 foizni tashkil etdi

Rivojlangan mamlakatlardagi YaIM o‘sish sur’atlaridagi beqarorlik hali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirlari davom etayotganini ko‘rsatadi. Jahondagi etakchi mamlakatlar iqtisodiy o‘sish sur’atlarining beqarorligiga, bir tomondan, inqirozga qarshi kurashish choralari bo‘yicha davlatlar rahbarlari o‘rtasidagi o‘zaro yakdillikning yo‘qligi, iqtisodiy siyosatda uyg‘unlikka erishmaslik zamin yaratsa, boshqa tomondan, yirik iqtisodiètga ega bo‘lgan mamlakatlarning ichki siyosiy beqarorligi ham bunga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

***2.-jadval.***

***Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ayrim mamlakatlarda YaIMning o‘zgarish dinamikasi[1]***

*(o‘tgan yilga nisbatan foizda)*

| Mamlakatlar | 2007 yil | 2008 yil | 2009 yil | 2010 yil | 2011 yil | 2012 yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| AQSh | 2,0 | 0,4 | 2,6 | 2,9 | 1,7 | 1,8 |
| Yaponiya | 2,0 | 0,7 | 5,2 | 3,9 | 0,4 | 2,0 |
| Buyuk Britnaiya | 3,0 | 0,7 | 4,9 | 1,7 | 0,8 | 0,7 |
| Germaniya | 2,5 | 1,2 | 4,7 | 3,6 | 3,0 | 0,7 |
| O’zbekiston | 9,5 | 9,0 | 8,1 | 8,5 | 8,3 | 8,2 |

Chunonchi YaIMning o‘sish sur’ati AQShda 2007 yilda 2,0 %ni, 2008 yilda 0,4%ni tashkil etib, 2009 yilda 2,6 %ga pasaydi, YaIM 2010 yilda 2,9 %ga, 2011 yilda 1,7 %ga, 2012 yilda 1,8 %ga o‘sdi. Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2011-2012 yillarda ham rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o‘sish sur’ati ancha sust bo‘lgan. Shu davrda O’zbekistonda YaIMning yuqori sur’atlarda o‘sishiga erishilgan. Mamlakatimizda 2012 yilda YaIMning real o‘sishi 2011 yilga nisbatan 8,2 foizni tashkil qilib, uning mutlaq hajmi 96,6 trillion so‘mga teng bo‘ldi.

O’zbekistonda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini

[1]Обзор мировой экономики. февраль.2013 год. Манба ://www.webeconomy.ru

bartaraf etish bo‘yicha 2009-2012 yillarga mo‘ljallab qabul qilingan Inkirozga qarshi choralar dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi oqibatida hozirgi murakkab sharoitda ham yuqori barqaror, mutanosib iqtisodiy o‘sishga erishilmoqda.

***3.-jadval.***

***O’zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi***[1]

*(o‘tgan yilga nisbatan foizda)*

| **Ko‘rsatkichlar** | **2008 yil** | **2009 yil** | **2010 yil** | **2011 yil** | **2012 yil** | **2013 yil** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| YaIM | 9,0 | 8,1 | 8,5 | 8,3 | 8,2 | 8,0 |
| Sanoat mahsulotlari | 12,7 | 9,0 | 8,3 | 6,3 | 7,7 | 8,4 |
| Qishloq xo‘jaligi | 4,5 | 5,7 | 6,8 | 6,6 | 7,0 | 6,0 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar | 28,3 | 24,8 | 8,7 | 7,9 | 11,6 | 11,0 |
| Jami xizmatlar | 21,3 | 12,9 | 14,6 | 13,2 | 14,2 | 16,0 |
| Chakana savdo aylanmasi | 7,2 | 16,6 | 14,7 | 16,4 | 13,9 | 16,0 |

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitda ham YaIM 8 %dan kam bo‘lmagan yuqori barqaror sur’atlarda o‘sgan. Mamlakatimizda YaIMning barqarorligi, iqtisodiyotdagi etakchi tarmoqlarning yuqori o‘sish sur’atlari ijtimoiy sohani, jumladan pensiya tizimini rivojlantirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

## 2.Ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarining ahamiyati

Inson huquqlari masalasida to‘plangan tajriba va amaliyotning o‘zi mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lib, ayni paytda siyosiy madaniyatning bir ko‘rinishi, shakli sifatida ham o‘z o‘rnini topmoqda. Hozirgi kunda dunyoda inson va fuqaro huquqlari bo‘yicha uch yuzdan ko‘p xalqaro-huquqiy hujjatlar amal qilib turibdi. Inson huquq va erkinliklari zamirida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning eng asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu huquqiy munosabatlar inson (fuqaro) bilan davlat o‘rtasida yuzaga keladi. Davlat har bir alohida olingan inson (fuqaro)ning asosiy va

[1]Экономика Узбекистана информационно - аналитический бюллетень за 2012год.-Т.: ЦЭИ.2013. –С. 12

boshqa huquq hamda erkinliklarini himoya qilish  majburiyatini oladi. Ayni vaqtda, Konstitutsiya asosiy huquq va erkinliklarni inson hamda fuqaro majburiyatlari bilan bog‘laydi. Bu asosiy huquq, erkinliklar va majburiyatlar inson hamda fuqaroning konstitutsiyaviy huquqiy maqomini tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1948 yil 10 dekabrda insonning asosiy (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) huquqlari va erkinliklari belgilab berilgan tarixiy hujjat – inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini (30 moddadan iborat)  qabul qildi. 1966 yilda BMT Bosh Assambleyasi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi, shuningdek, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktlar kabi hujjatlarni qabul qildi. Bu huquqiy aktlarda inson va fuqaro huquqi mukammal bayon etib berildi. Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlarga - mamlakatning Konsti-tutsiyasining o‘zida bevosita mustahkamlangan kafolatlar kiradi.

D.Q.Axmedovning “Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy (davlat) huquqi” nomli o‘quv qo‘llanmasida yozilishicha, ayrim mamlakatlar masalan, AQSh Konstitutsiyasida fuqarolarning ijtimoiy-madaniy sohadagi huquq va erkinliklar mustahkamlanmagan.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta’minlashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar majmui kafolat tushunchasini beradi. Kafolatning asosiy vazifasi, fuqarolarni huquq va erkinliklarni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to‘siqlarni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashdir. Kafolatlarni quyidagicha turkumlash mumkin: yuridik (huquqiy), ijtimoiy-siyosiy,  iqtisodiy (moddiy) kafolatlar. Fuqarolarni huquq va erkinliklarini ta’minlashda yuridik kafolatlar alohida o‘rin tutadi, chunki boshqa barcha kafolatlar yuridik jihatdan tartibga solinishni taqozo etadi. Yuridik kafolatlar fuqarolarni huquq va erkinliklarni qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishidir. Yuridik kafolatlarni real amalga oshishi faqat demokratik rejim sharoitida kuzatiladi. Fuqarolik maqomiga ega bo‘lish inson uchun to‘la ma’noda o‘z huquqi va erkinliklarini

amalga oshirish va olgan barcha majburiyatlarini bajarish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda, davlat ham fuqarolarga nisbatan olgan majburiyatlarini to‘la-to‘kis bajarishi lozim. Iqtisodiy kafolatlarga: adolatli iste’mol savatini davlat tomonidan rasmiy ravishda mustahkamlash, minimal oylik ish haqi miqdorini belgilash, davlat tomonidan aholini kam ta’minlangan qatlamini, voyaga etmaganlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo‘llab - quvvatlash, barcha mulk shakllarini tengligini hamda fuqarolarni mulk huquqlarini ta’minlash kiradi.

Konstitutsiyamiz negiziga qo‘yilgan talab va qoidalarga to‘liq mos keladigan, dunyo hamjamiyatida “O’zbek modeli” deb nom qozongan, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda. “O’zbek modeli” ning mazmun-mohiyati iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi mashhur besh tamoyilda mujassam topgan.

O’zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarni moliyalashtirish va ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda hamda iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda O’zbekiston Respublikasida Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi muhim ahamiyatga ega. Butun islohotlar jarayonida respublikamizda aholining ijtimoiy himoyasini qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlari va erkinliklarining qonunchilik hamda huquqiy asoslarini shakllantirish hamda amalga oshirish masalalariga juda katta ahamiyat beriladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, inson manfaatlarini ko‘zlaydi.

Davlat pensiya ta’minotining moliyaviy muammolari esa ko‘p jihatdan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi rivojlantirishga bog‘liq bo‘ladi. Pensiya tizimida ko‘plab imtiyozlar mavjudligi, pensiyaga qo‘shib beriladigan ustamalarning pensiya jamg‘armasidan to‘lanishi, pensiyalar miqdorlarida sug‘urta «stajiga» emac, balki, «ish stajiga» qarab hisoblanishi Budjetdan tashqari Pensiya

jamg‘armasida muammolarni vujudga keltirdi. Pensiya jamg‘armasining daromadlar qismida daromadlar manbalarini ko‘paytirish va barqarorlashtirish, moliyaviy resurslarini  samarali boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda. O’zbekiston Respublikasi huzuridagi  Budjetdan tashqari  Pensiya jamg‘armasi xodimlari Pensiya jamg‘armasi xarajatlari ijro etilishi bo‘yicha O’zbekiton Respublikasi Moliya Vazirligi tasdiqlagan rejani ijrosi bo‘yicha yilning har choragida moliyaviy hisobot tuzadi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash bo‘yicha jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlab qo‘yilgan ijtimoiy va huquqiy normalarni ta’minlash maqsadida  ijtimoiy muhofaza institutlari va mexanizmlari barpo etiladi hamda ular huquqiy qo‘llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy himoyaning vazifasi pensiya ta’minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-tibbiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakat fuqarolarining pensiyasini belgilovchi asosiy omil sifatida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalaridagi pul mablag‘larining mavjudligi e’tiborga  olinadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “...Bugungi kunda biz hech kimdan kam bo‘lmaydigan demokratik davlat, xalqimiz uchun ozod va farovon hayot qurish maqsadlari bilan yashar ekanmiz, oila institutini yanada mustahkamlash, bu borada olib borayotgan  ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish alohida ahamiyat kasb etadi”[1].  Zero fuqarolarning munosib hayot kechirish, aholini ayrim toifalarini (qariyalar, kam ta’minlangan oilalar, yosh bolali onalar, ayollar, nogironlar va pensionerlar) moddiy jihatdan ta’minlash davlatning muhim ijtimoiy siyosati hisoblanadi.

---

[1] Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. // Xalq so‘zi.  2011 yil. 8 dekabar.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi iqtisodiyotning tayanch bo‘g‘inidir. Aholining kam ta’minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas’uliyatni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg‘armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksak.

Vatanimiz iqtisodchilaridan Q.Abduraxmonovning “Mehnat iqtisodiyoti” darsligida ta’kidlanishicha, samarali ijtimoiy himoyalash deganda, jamiyatning har bir a’zosiga ma’lum turmush darajasini ta’minlash, o‘z qobiliyatini (mehnat, tadbirkorlik) rivojlantirish va ulardan foydalanish, mazkur qobiliyatlar yo‘qotilgan taqdirda (keksalar, nogironlar, kasallar, bolalar uchun) kafolatlarini ta’minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidan foydalaniladi. Aholining kam ta’minlangan qatlamlaridan biri - pensionerlardir. Hozirgi kunda pensiya ta’minotining ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan muhimligi shundaki, respublikamiz fuqarolarining iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog‘liqligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda, vatandoshlarimizning siyosiy etukligi, madaniyati, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Aynan shularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo‘lga kiritishimizni ta’minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi - taraqqiyotimiz kafolatidir. Muhtaram Yurtboshimizning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi «Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir» ma’ruzasi alohida o‘rin tutadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi” 2010 yil 12 noyabrda tasdiqlandi. Ijtimoiy sheriklikning tashkiliy-huquqiy

mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarb muammolari hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati oshkoraligi va ochiqligini ta’minlashda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Respublikamizda aholining yuqori turmush darajasini ta’minlash va kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga asoslangan demokratik jamiyat qurish vazifa qo‘yilar ekan, bunda davlatning maqsadli jamg‘armalari tarkibidagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hozirgi faoliyati holatini hamda istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Mamlakatimizda keyingi yillarda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan muayyan ishlarning huquqiy poydevori barpo etildi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim qariganda, mehnatga yaroqsiz bo‘lib qolganida, shuningdek, boquvchisidan judo bo‘lganida hamda qonunda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olishga haqli, degan qoidaga muvofiq fuqarolarni xilma-xil shakldagi ijtimoiy himoyalash kafolatlab qo‘yildi. Pensiya ta’minoti sohasi faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, avvalambor inson omilining salbiy rolini cheklash Pensiya jamg‘armasi o‘z oldiga qo‘ygan ustivor vazifalardan biridir. O’zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini yaratish va takomillashtirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishning kuchayishi pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturiga muvofiq, aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo‘naltirilgan va tabaqalashgan yondoshuvni yanada kuchaytirish, kam ta’minlangan oilalarni

zarur moddiy yordam ko‘rsatish orqali qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag‘batlantirish va haq to‘lash mexanizmini takomillashtiriladi.

### 3. O’zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslari

Jamg‘arma mustaqil moliyaviy strukturaga, pensiya ta’minoti moliyasini davlat boshqaruv organiga – O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi. 1997 yil 1 yanvardan Pensiya jamg‘armasining pul mablag‘lari O’zbekiston Davlat byudjetida mablag‘larni sarflashda maqsadga yo‘naltirilganlikni saqlagan holda jamlandi. O’zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi 2000 yil 14 dekabrdagi Qonuniga binoan jamg‘arma davlat maqsadli jamg‘armasi maqomiga ega, 2005 yil 1 yanvardan esa Pensiya jamg‘armasi O’zbekiston Respublikasi  Moliya vazirligining idoraviy qaramog‘iga o‘tkazildi.

Mamlakatimiz moliya tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri - 2014 yilda O’zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining kuchga kirishidir. Budjet kodeksi byudjet jarayonini (Davlat byudjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijro etishni hamda nazoratni ta’minlashni) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, Davlat byudjetini ham, davlat maqsadli jamg‘armalarni ham tartibga solishning yagona printsiplarini qo‘llanishni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirib, mahalliy byudjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlashni, barcha darajalardagi byudjetlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi. Budjet kodeksida byudjetlar parametrlari, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy saytda chop etish nazarda tutilganligi ham ushbu yangi qonun hujjatining demokratik, oshkoralik printsiplariga asoslanganidan dalolatdir.      Budjet kodeksiga ko‘ra byudjet jarayonini tartibga solishning yagona printsiplari O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ham, davlat maqsadli jamg‘armalariga ham qo‘llaniladi. Hujjatda Davlat byudjetiga

davlat maqsadli jamg‘armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari qamrab olingan. Mazkur Kodeks byudjet jarayoni ishtirokchilarini, shuningdek undan foydalanuvchilarni byudjet tizimi va byudjet jarayoni to‘g‘risidagi har tomonlama salmoqli va ishonchli axborot bilan ta’minlay oluvchi hujjat bo‘ldi. “Budjet kodeksida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari tuzilmasi, Davlat byudjeti va uning tarkibiga kiruvchi mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari aks ettirilgan. Qolaversa, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash hamda ulardan foydalanish tamoyillari belgilandi, byudjet ijrosi qismida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o‘zgartirish kiritish tartibi soddalashtirildi»[1]. Budjet kodeksida nazarda tutilgan me’yor va qoidalarning amalga oshirilishi byudjet jarayonining barcha bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar qo‘llanilishini va bir xil yondoshuvni ta’minlaydi hamda byudjet jarayonining barcha qatnashchilari ishini engillashtiradi. Shu tariqa Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlashga erishiladi hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini sifatli va samarali bajarish mumkin bo‘ladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qaror qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Quyidagi rasmda Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘ar-masining maksadlari berilgan. Ushbu Nizom O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni,

[1]O‘rozov U. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. \\ Moliya. - Toshkent. 2014. №1. –B.28.

hisobga olishni va ularning to‘lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funktsiyalari va vakolatlarini belgilaydi.




***1.-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining maqsadlari.***[1]

O’zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi:

---

[1]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qarori.

yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi. Mazkur Qonun O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta’minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to‘lash tartibini belgilaydi.




***2.-rasm.Davlat pensiyasining turlari***[1].

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega: erkaklar — 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar — 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni hamda ularning oila a’zolarini pensiya bilan ta’minlash shartlari, normalari va tartibi O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan

[1]O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr.

bo‘lgan shaxslar pul ta’minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar, Yoshidan qat’i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro‘yxati; umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-sonli ro‘yxati; umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko‘rsatkichlarning 3-sonli ro‘yxati.Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog‘liq bo‘lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari pensiyalar tayinlash masalalari yuzasidan tushuntirish va ma’lumotlar berishlari, shuningdek arizachiga zarur hujjatlarni olishida ko‘maklashishlari shart. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslardan tegishli hujjatlarni talab qilish, zarur hollarda esa, ularning berilishi asosliligini tekshirish huquqiga ega

.Korxonalar va tashkilotlar pensiya uchun (pensiya qayta hisoblanishi uchun) hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki ishonchsiz ma’lumotlari bo‘lgan hujjatlarni taqdim etish oqibatida pensionerga etkazilgan zarar uchun uning oldida qonun hujjatlarida belgilanganidek javobgar bo‘ladilar. Korxona yoki pensioner tomonidan ma’lumotlari ishonchsiz hujjatlar taqdim etilganligi

oqibatida davlatga zarar etkazilgan taqdirda, etkazilgan zararning o‘rni O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga qoplanadi. Bunda korxona tomonidan etkazilgan zararning o‘rni O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limidan tegishli xabarnoma olingan kundan e’tiboran qoplanadi.




***3.-rasm. Pensiyani qayta hisoblash tartibi[1].***

Pensiyalarni qayta hisoblash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- pensioner pensiya miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo‘lgan ish staji va ish haqi to‘g‘risidagi hamda boshqa) qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;
- nogironlik guruhi o‘zgarganda;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oladigan oila a’zolari soni o‘zgarganda;
- eng kam oylik ish haqi miqdorlari o‘zgargan taqdirda;
- daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo‘lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

## I BOB bo‘yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida birinchi bob yuzsidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

**1.** Davlat amalga oshiradigan ijtimoiy siyosat va iqtisodiy siyosat o‘zaro bog‘liq. Iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi - ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolar turmush farovonligini ta’minlash, ya’ni ijtimoiy siyosatga xizmat qilishdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda ushbu ikki siyosat o‘rtasidagi muvozanatni, ularning o‘zaro to‘g‘ri nisbatining belgilanishi jamiyatda ijtimoiy adolat o‘rnatilishining shartlaridan biri bo‘lib sanaladi.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida bolali ehtiyojmand oilalarga, ikki yoshgacha bo‘lgan farzandi tarbiyasi bilan band ishlamayotgan onalarga nafaqa hamda kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to‘lash fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan:
    - ijtimoiy adolat, xolislik va oshkoralik tamoyillariga qat’iy amal qilish;
    - ko‘rsatilayotgan moddiy yordamning aniq yo‘naltirilishini ta’minlash, uni haqiqiy ehtiyojmand oilalarga berish, boqimandalikka yo‘l qo‘ymaslik, oilalar daromadi va mol-mulkini har tomonlama hisobga olish;
    - ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish asosida amalga oshiriladi.

3. Aholi turmush darajasining o‘sishi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va pensiya ta’minotiga nisbatan oshib borayotgan talabning ta’minlanishi bilan bog‘liq.
4. Aholi turmush darajasini aniqlashda har bir mamlakatda insonning kamolat indeksidan foydalaniladi. Insonning kamolot indeksi –

insonning rivojlanganlik darajasini, turmush farovonligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarda quyidagilar inobatga olinadi:

- kishilar jon boshga to‘g‘ri keladigan YaIM ulushi;
- mamlakatdagi o‘rtacha yashash yoshi uzunligi;
- mamlakat aholisining ta’lim va malaka darajasi;
- fuqarolarning pensiya ta’minoti;
- aholining turmush sifati.

5. Davlat pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirishga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini 2012-2016 yillarda barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo‘li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta’minlash hamda joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan Kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur dastur o‘rnatilgan tartibda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlandi. Bu chora-tadbirlarning barchasi aholi turmush farovonligini ta’minlash, nuroniy va pensionerlarni e’zozlash, pensiya tizimni takomillashtirib borish orqali fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini adolatli tashkil etishga xizmat qiladi.

## II BOB. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOIY MAQSAD XARAJATLARINING TAHLILI

### 1.Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi

O’zbekiston Respublikasida «...Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya’ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig‘i ta’lim, 14,5 foizdan ko‘prog‘i sog‘liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. 2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizdan kam bo‘lmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda. 2013-yilda ham Davlat byudjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig‘i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan»[1].

Davlat maqsadli fondlarining daromadlarini bozor tamoyillari asosidagina emas, balki mazkur jamiyat uchun eng maqbul bo‘lgan ijtimoiy adolat tamoyillariga ko‘ra maqsadli qayta taqsimlash taqozo etiladi. Jamiyat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy, madaniy faoliyatni amalga oshiradigan pensiya tayinlovchi tashkilotlar tarixan davlat tuzilmasining bir qismiga aylanib qolgan.

Pensiya jamg‘armalaridagi fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg‘arma badallari ularni davlatning moliyaviy ishtiroki

---

[1]Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

asosida shakllanuvchi, muayyan jamg‘arma tashkil etgan aholi toifalariga to‘lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo‘ljallangan mustaqil pul jamg‘armalari sifatida ta’riflash imkonini beradi.

***4.-jadval.***

***O’zbekiston Respublikasi 2012-2014 yilgi Davlat byudjeti xarajatlari[1].***

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2012 | | 2013 | | 2014 | |
| | Mlrd. so‘mda | Foizda | Mlrd. so‘mda | Foizda | Mlrd. so‘mda | Foizda |
| **Ijtimoiy-madaniy soha va ijtimoiy himoya xarajatlari** | **12513,2** | **58,1** | **15573,5** | **58,9** | **18783,4** | **59,5** |
| ta’lim | 7303,7 | 33,8 | 8984,6 | 35,5 | 10765,4 | 34,1 |
| madaniyat, sport, fan va ommaviy axborot vositalari | 396,4 | 1,8 | 452,2 | 1,7 | 534,0 | 1,7 |
| sog‘liqni saqlash | 2820,3 | 13,1 | 3768,6 | 14,3 | 4495,3 | 14,2 |
| ijtimoiy ta’minot | 93,8 | 0,5 | 107,3 | 0,4 | 125,9 | 0,4 |
| aholini ijgimoiy himoya xarajatlari | 1899,0 | 8,8 | 1839,9 | 7,0 | 2807,0 | 9,1 |
| Iqtisodiyot xarajatlari | 2372,0 | 11,0 | 2791,9 | 11,0 | 3385,3 | 10,5 |
| Markazlashgan investitsiya xarajatlari | 1059,3 | 5,0 | 1300,0 | 5,0 | 1508,0 | 4,5 |
| Davlat boshqaruv organlari, sud organlarini saqlash xarajatlari | 629,2 | 3,0 | 825,9 | 3,1 | 1000,0 | 3,0 |
| O’z-o‘zini boshqarish organlari xarajatlari | 191,7 | 0,8 | 287,3 | 1,1 | 343,7 | 1,0 |
| Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy xokimiyatlar rezerv fondi | 70,9 | 0,3 | 85,0 | 3,2 | 91,0 | 0,5 |
| Boshqa xarajatlar | 4735,4 | 21,9 | 5448,8 | 17,68 | 6469,1 | 21,0 |
| **Xarajatlarning jami** | **21571,7** | **100,0** | **26312,4** | **100,0** | **31582,3** | **100,0** |

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari asosida tayyorlandi.

Quyidagi jadvalda O’zbekiston Respublikasi 2012-2014 yilgi Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi berilgan. Respublikamizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy-madaniy soha va fuqarolarni ijtimoiy himoyalash xarajatlari 2012 yilda 12513,2 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 58,1 foiziga teng. 2013 yilda 15573,5 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 58,9 foiziga teng. 2014 yilda 18783,4 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 59,5 foiziga teng. Shundan, ta’lim xarajatlari 2012 yilda 7303,7 33,8 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 33,8 foiziga teng. 2013 yilda 8984,65 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 35,5 foiziga teng. 2014 yilda 10765,4 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 34,1 foiziga teng.

Sog‘liqni saqlash xarjatlarining miqdori 12513,2 mlrd. so‘mga teng, jami byudjet xarajatlarining 13,1 foiziga teng. 2013 yilda 3768,6 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 14,3 foiziga teng. 2014 yilda 4495,3 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 14,2 foiziga teng.

Aholini ijgimoiy himoya xarajatlarining hajmi 1899,0 mlrd. so‘mga teng, jami byudjet xarajatlarining 8,8 foiziga teng. 2013 yilda 1839,9 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 7,0 foiziga teng. 2014 yilda 2807,0 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 9,1 foiziga teng. Davlat byudjetidan iqtisodiyot xarajatlari uchun 2372,0 mlrd. so‘m. mablag‘ ajratildi, tasdiqlangan jami byudjet xarajatlarining 11,0 foizini tashkil etadi. 2013 yilda 2791,9 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 11,0 foizga teng. 2014 yilda 3385,3 mlrd. so‘m., jami byudjet xarajatlarining 10,5 foizga teng (2.-jadval).

Davlat byudjeti xarajatlarini ta’lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot, aholini ijtimoiy himoya qilish kabi ijtimoiy sohalarga yo‘naltirishi mo‘ljallangan. Bozor iqtisodiyotga o‘tish aholining asosiy qismining ijtimoiy ko‘makka ehtiyojmandligi oshiradi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida byudjetdan ancha miqdorda mablag‘ talab qilinadi. Ushbu mablag‘larni berish asosan mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda Samarqand shahar mahalliy byudjeti xarajatlarining tarkibiy tuzilishi berilgan (-jadval). Jami mahalliy byudjet xarajatlari 2011 yilda 85 640 356,0 ming so‘mni, 2012 yilda 106 217 818,0 ming so‘mni, 2013 yilda 141 098 867,0 ming so‘mni tashkil etdi, mahalliy byudjeti xarajatlarining miqdori 2011-2013 yillar bo‘yicha 0,6 marta oshdi. Berilgan jadval ma’lumotlari bilan Samarqand shahar maxalliy byudjetning tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining ulushini ko‘rib chiqamiz. Ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining 2011 yilda 70743220,0 ming so‘m (82,6 foiz)ni tashkil etdi, 2012 yilda 87926691,0 ming so‘m (82,4 foiz)ga tushdi, 2013 yilda 117243653,0 ming so‘m (82,9 foiz) ga teng bo‘ldi.

Ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining mahalliy byudjeti xarajatlaridagi ulushi 2011-2013 yillar bo‘yicha 82,6 foizdan 82,9 foizga oshdi. Samarqand shahar mahalliy byudjeti xarajatlarining tarkibida ta’lim xarajatlari ulushi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Ta’lim xarajatlari 2011 yilda 45255 584,0 ming so‘m (52,9 foiz) ni, 2012 yilda 56953 074,0 ming so‘m (53,3 foiz) ni tashkil etdi, 2013 yilda 79558861,0 ming so‘m (56,3 foiz) rejalashtirildi (5-jadval).

Sog‘liqni saklash xarajatlari 2011 yilda 24 996 631,0 ming so‘m (29,1 foiz) ni tashkil etdi, 2012 yilda 30 343 940,0 ming so‘m (28,6 foiz) ga tushdi, 2013 yilda 36 873 221,0 ming so‘m (26,1 foiz) rejalashtirildi. 2011-2013 yillar bo‘yicha madaniyat xarajatlarining jami mahalliy byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushida katta o‘zgarishlar bo‘lmadi, 0,3 foiz holatida saqlanib qoldi. Madaniyat xarajatlari 2011 yilda 309370,0 ming so‘m (0,3 foiz)ni, 2012 yilda 409683,0 ming so‘m (0,3 foiz)ni, 2013 yilda 546448,0 ming so‘m (0,3 foiz)ni tashkil etdi.

Samarqand shahar mahalliy byudjeti xarajatlarining tarkibida iqtisodiyot xarajatlarining ulushi 2011-2013 yillar bo‘yicha 7,3 foizdan 6,2 foizga tushdi. Iqtisodiyot xarajatlari 2011 yilda 6335340,0 ming so‘m (7,3 foiz)ni, 2012 yilda 7475115,0 ming so‘m (7,0 foiz)ni, 2013 yilda 8871897,0 ming so‘m (6,2 foiz)ni tashkil etdi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 2011 yilda

5122111,0 ming so‘m (6,0 foiz)ni, 2012 yilda 6377067,0 ming so‘m (6,0 foiz)ni, 2013 yilda 7232942,0 ming so‘m (5,3 foiz)ni tashkil etdi.

*5.-jadval*

***Samarqand shahar mahalliy byudjeti xarajatlari tarkibiy tuzilishi[1].***

*ming.so'm.*

| Xarajatlar | 2011 yil jami xarajat | Jami xarajatga nisbatan foizda | 2012 yil jami xarajat | Jami xarajatga nisbatan foizda | 2013yil jami xarajat | Jami xarajatga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari** | **70 743 220** | **82,6** | **87 926 691** | **82,4** | **117 243 653** | **82,9** |
| Ta'lim | 45 255 584 | 52,9 | 56 953 074 | 53,3 | 79 558 861 | 56,3 |
| Sog'liqni saklash | 24 996 631 | 29,1 | 30 343 940 | 28,6 | 36 873 221 | 26,1 |
| Madaniyat | 309 370 | 0,3 | 409 683 | 0,3 | 546 448 | 0,3 |
| Jismoniy tarbiya | 8 848 | 0,1 | 10 424 | 0,0 | 11 152 | 0,0 |
| Ijtimoiy ta'minot | 172 787 | 0,2 | 209 570 | 0,2 | 253 971 | 0,2 |
| **Iqtisodiyot xarajatlari** | **6 335 340** | **7,3** | **7 475 115** | **7,0** | **8 871 897** | **6,2** |
| Qishloq va suv xo'jaligi xarajatlari | 219 499 | 0,2 | 237 147 | 0,3 | 341 207 | 0,2 |
| Obodonlashtirish xarajatlari | 6 099 709 | 7,1 | 7 147 968 | 6,7 | 8 530 690 | 6,0 |
| Kommundrenaj | 16 132 | 0,0 | - | - | - | - |
| Davlat boshqaruv organlari xarajatlari | 471 333 | 0,5 | 631 419 | 0,5 | 1 040 897 | 0,7 |
| Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari | 2 968 352 | 3,4 | 3 807 526 | 3,6 | 6 709 478 | 4,8 |
| Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlar | 5 122 111 | 6,0 | 6 377 067 | 6,0 | 7 232 942 | 5,3 |
| **JAMI XARAJATLAR** | **85 640 356** | **100,0** | **106 217 818** | **100,0** | **141 098 867** | **100,0** |

[1] Samarqand shahar maxalliy byudjeti ma'lumotlari.

Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 2011 yilda 5122111,0 ming so‘m (6,0 foiz)ni, 2012 yilda 6377067,0 ming so‘m (6,0 foiz)ni, 2013 yilda 7232942,0 ming so‘m (5,3 foiz)ni tashkil etdi. 2012-2013 yillar bo‘yicha jami mahalliy byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi, 2011 yilda 6,0 foizdan 2013 yilda 5,3 foizga tushdi. Davlat mablag‘larni byudjet tashkilotlariga va fuqarolarga o‘z vaqtida va maqsadli etkazishni ta’minlashning G’aznachilikdan tashqari boshqa vositasiga ega emas. Shuning uchun g‘aznachilik faoliyati natijalari jamiyat uchun ahamiyatli hisoblanadi**.**

## 2.O’zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarini tahlili

Quyidagi jadvalda Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining o‘zgarishi berilgan. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so‘mga ko‘tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so‘mga teng, 2014 yilda 13013,7 mlrd.so‘m rejalashtirildi. Mehnat haqidan yagona to‘lov salmoqli o‘ringa ega. Daromadlar tarkibida ish haqidan yagona to‘lov 2011 yilda 3903,4 mlrd.so‘mni (63,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 4799,2 mlrd.so‘mga (60,0 foiz) ko‘tarildi, 2013 yilda 5907,4 mlrd.so‘m (57,3foiz), 2014 yilda 7299,5 mlrd.so‘m (56,1foiz) rejalashtirildi. Jamgarma daromadlari tarkibida sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar 2011 yilda 1122,7 mlrd.so‘mni (18,2 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 1401,5 mlrd.so‘mga (17,3 foiz) ko‘tarildi, 2013 yilda 1591,3 mlrd.so‘m (15,4 foiz)ga etdi, 2014 yilda 1933,0 mlrd.so‘m (14,8 foiz)ga rejalashtirildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so‘mga ko‘tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so‘m belgilandi, 2014 yilda 13013,7 mlrd.so‘m belgilandi. Jamg‘arma mablag‘laridan ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlari 2011 yilda 5862,7 mlrd.so‘mni (95,4 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, 2012 yilda 7246,0 mlrd.so‘m (89,9 foiz)ga ko‘tarildi, 2013 yilda 9097,6 mlrd.so‘m (88,3

foiz), 2014 yilda 11191,9 mlrd.so‘m (85,3 foiz) rejalashtirildi. Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar 2011 yilda 278,9 mlrd.so‘mni (4,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 290,0 mlrd.so‘mga (3,6 foiz) ko‘tarildi, 2013 yilda 317,4 mlrd.so‘m (3,0 foiz), 2014 yilda 426,6 mlrd.so‘m (3,2 foiz) rejalashtirildi

**6.-*jadval.***

***O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining o'zgarishi (2011-2014 yillar)*** [1]

*(mlrd. so'mda)*

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 reja |
| **Jami daromadlar** | **6144,4** | **8065,4** | **10302,1** | **13013,7** |
| Yil boshiga qoldiq | 0,5 | 280,1 | 602,2 | 1067,3 |
| **Daromadlar** | **6143,9** | **7785,3** | **969,9** | **11946,4** |
| Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov | 3903,4 | 4799,2 | 5907,4 | 7299,5 |
| Fuqarolarning majburiy badallari | 720,4 | 1110,2 | 1482,7 | 1877,2 |
| Sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratma | 1122,7 | 1401,5 | 1591,3 | 1933,0 |
| Boshqa daromadlar | 397,4 | 474,4 | 718,5 | 836,7 |
| **Xarajatlar** | **6144,4** | **8064,5** | **10302,1** | **13013,7** |
| Ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar | 5862,7 | 7246,0 | 9097,6 | 11191,9 |
| Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar | 278,9 | 290,9 | 317,4 | 426,6 |
| Xomiladorlik va tug‘ish nafaqalari, bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari | 0,7 | 12,8 | 20,5 | 29,1 |
| Boshqa xarajatlar | 1,6 | 1,8 | 2,1 | 2,4 |

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqalari, bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari 2011 yilda 0,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi, 2012 yilda 12,8 mlrd.so‘mga ko‘tarildi, 2013 yilda 20,5 mlrd.so‘m, 2014 yilda 29,1 mlrd.so‘m rejalashtirildi. Jadval ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibida mehnat haqidan yagona to‘lov salmoqli o‘ringa ega. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘arma xarajatlari tarkibida ishlamaydigan va ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlariga yo‘naltiriladi.

Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat to‘laligicha ustuvor bo‘lib boradi. Davlat byudjetining asosiy vazifasi iqtisodiyotni moliyaviy vositalar yordamida samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘ldi. Quyidagi jadvalda O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida Pensiya jamg‘armasiga dotatsiyalar ajratilishi ko‘rsatilgan (7.-jadval).

Davlat maqsadli jamg‘armalari tarkibida salmoqli o‘rinni Budjetdan tashqari Pensiya jamgarma egallaydi. Keyingi yillarda Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari tarkibida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Masalan, 1994 yil byudjetdan ajratilgan transfert to‘lovlari Pensiya jamg‘armasining daromadlarini 21,3 % ini qoplagan bo‘lsa, 2000 yilga kelib 3,5% ini tashkil etdi. 2000 yilda byudjetidan moliyalashtiriladigan sohalardagi minimal ish haqi, pensiya miqdori, ijtimoiy to‘lovlar va nafaqalar miqdorini oshirilishi pensiya fondining moliyaviy ahvolini qiyinlashtirdi va 2000 yil Pensiya fondi taqchilligini qoplash uchun Davlat byudjetidan 7,9 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibidagi Pensiya fondining 2007 yilgi xarajatlari 1840,5 mlrd. so‘mni, daromadlari esa 1881,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Jumladan, yagona ijtimoiy to‘lov, badallar, ajratmalardan 1640,4 mlrd. so‘m mablag‘ tushdi.

**7.-jadval.**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Pensiya jamg'armasiga dotatsiyalar ajratilishi**[1]

(mln. so'm)

| **Xarajatlar** | **2004 yil** | **2005 Yil** | **2006 yil** | **2007 yil** | **2008 yil** | **2009 yil** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari | 1305416,5 | 1723777,2 | 2155663,9 | 2885872,4 | 4000593,5 | 6170982,0 |
| **Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga dotatsiya** | **-** | **28563,9** | **50000,0** | **45000,0** | **65000,0** | **230000,0** |
| Iqtisodiyot xarajatlari | 367022,5 | 461434,6 | 557508,3 | 643381,6 | 933302,6 | 1305744,0 |
| Markazlashgan davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish xarajatlari | 300000,0 | 363451,8 | 395000,0 | 460000,0 | 595000,0 | 820000,0 |
| Davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, sud organlarining xarajatlari | 524238,2 | 97445,7 | 116063,0 | 157862,3 | 243573,6 | 356841,0 |
| Vazirlar Mahkamasining rezerv fondi | 41300,0 | 16346,3 | 19450,0 | 20000,0 | 31500,0 | 34175,0 |
| Boshqa xarajatlar | 537627,7 | 662080,8 | 698522,3 | 886551,1 | 1236493,7 | 2225284,0 |
| **Xarajatlar jami** | **2621300,0** | **3353100,2** | **3992207,6** | **5100867,9** | **7108257,4** | **10913026,0** |

[1] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

Budjetdan tashqari Pensiya fondiga Respublika byudjetidan 2005 yilda 28564,0 mln so‘m, 2006 yilda 50000,0 mln so‘m, 2007 yilda 45000,0 mln so‘m, 2008 yilda 65000,0 mln so‘m, 2009 yilda 230000,0 mln so‘m dotatsiya ajratildi, Pensiya fondiga 2010 yildan boshlab dotatsiyta berilmadi.

«O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Pensiya fondining 2009 yilgi daromadlari xarajatlari 4293,9 mlrd. so‘mni (byudjetdan dotatsiya 230,0 mlrd.so‘m, 1 yanvar xolatiga ko‘ra Respublika byudjeti qoldiqlari hisobiga aylanma kassa nakd pulining to‘ldirilishi 140,0 mlrd.so‘m), xarajatlari esa 4063,9 mlrd. so‘m miqdorida qabul qilindi»[1].

«O’zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va sarflash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qaroriga ko‘ra, jamg‘arma mablag‘laridan maqsadga muvofiq foydalanishni nazorat qilish Moliya vazirligi va uning hududiy organlariga yuklatildi. Jamg‘armaga o‘tkazilgan mablag‘larni o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq to‘lanishida pensiya va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalarni etkazib beruvchi Xalq banki bo‘limlari va «O’zbekiston pochtasi» ochiq aktsiyadorlik jamiyatining mas’uliyati oshirildi.

O’zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi byudjeti defitsitini yo‘qotish va moliyaviy resurslarni barqarorligini ta’minlash uchun pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim (4.-rasm). Ta’rif siyosatini takomillashtirishda pensiya huquqini shakllantirish avvalgi yillardagi pensionerlar oldidagi pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ushbu majburiyat ob’ektiv birdamlik majburiyatidan kelib chiqib, bir tomondan ishlovchilar va ikkinchi tomondan ish beruvchi va davlatga qo‘shimcha yuk bo‘lib tushadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1245-son Qarori.




***4.-rasm. Pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari***[1]

Ushbu qo‘shimcha majburiyat pensiya tizimining barcha qatnashchilari uchun iqtisodiy jihatdan muvozanatlashgan bo‘lib sug‘urtachilar va byudjet o‘rtasida taqsimlanishi lozim. Davlat tomonidan tarif siyosatini tartibga solish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri badallik stavkasi oshirilishi yoki bilvosita sug‘urta to‘lovi hisoblanishida regressiv yoki progressiv shkala joriy qilinishida sug‘urtalanadigan daromad chegarasi darajasi qayta ko‘rib chiqilishi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning tarif siyosati tartibga solinishida mehnat bozorining rasmiy va norasmiy sektori, o‘zini-o‘zi bandlik bilan ta’minlovchi aholi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari sug‘urta yili qiymatidan kelib chiqqan holda badal to‘laydi. Shu sababga ko‘ra, tarif siyosatini takomillashtirish o‘zini-o‘zi bandlik bilan ta’minlovchi fuqarolarni qarilikdagi moddiy ta’minotini kengaytirish uchun ularga badallar to‘lash orqali sug‘urtalangan shaxslarga mehnat pensiyalarini shakllantirish huquqi beriladi.

Respublikamizdagi islohotlarning barcha bosqichlarida ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha maqsadli jamg‘armalar

[1] Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. − Toshkent, 2010.- № 4.− B. 25.

shakllantirildi. Albatta, shu kungacha bu jamg‘armalarning amal qilishi aholini ijtimoiy himoyalashning jamiya-timiz boyligiga aylangan yutuqlariga hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Endilikda ijtimoiy siyosatning yangi bosqichi talablariga muvofiq, ob’ektiv ravishda maqsadli jamg‘armalarning barchasini amal qilish samaradorligini oshirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

Jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, uzoq muddatli moliyaviy barqaror pensiya tizimi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun mamlakat Pensiya jamg‘armasi byudjeti taqchilligining mavjud omillarini aniqlash va uni tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish lozim.

### 3. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining tahlili

Pensiya ta’minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo‘lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Respublikamizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi” moliyaviy kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarni shakllantirish va keksalik chog‘ida foydalanishning shakl va usullari yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

O’zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi Qonunning maqsadi – fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus

byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg‘armalardan pensiyalarni moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. “Jamg‘arib boriladigan pensiya” kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarini shakllantirib, keksalik chog‘ida foydalanish shakl va usullarini yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega. «Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti — fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘shimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlashdir». Jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari — shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag‘lari hisoblanadi. Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari — shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag‘laridan iborat”[1]. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi.

Respublika bo‘yicha jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida 2012 yilning 1 yanvar holatida jami 7077897 nafar, Fag‘ona viloyati bo‘yicha esa jami 742338 nafar fuqaro jamg‘arib boriladigan pensiya oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan, shuningdek, ishtirokchilardan 6870322 nafariga, Farg‘ona viloyati bo‘yicha esa 736002 ta jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi tarqatildi. Qonun hujjatlarida belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida yig‘ilgan mablag‘larni markazlashtirilgan holda uzoq muddatli aktivlarga invistitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirib kelmoqda. Jumladan, 2006 yilda 3,2 mlrd. so‘m fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari qoldig‘iga qo‘shilgan bo‘lsa, 2010

[1] O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni. 2004 yil. 2 dekabr.

yilda ushbu ko‘rsatkich 26 mlrd. so‘mni, 2011 yilda esa 38,8 mlrd. so‘mni, jami ushbu tizim ishga tushirilgan davr mobaynida 106,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2010-2011 yillarda tizim ishtirokchilarining majburiy badallari uchun 8 foiz miqdorida, ishtirokchilarning ixtiyoriy kiritgan badallari uchun 24 foiz miqdorida foizlar hisoblanib, olingan daromadlar fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari qoldig‘iga qo‘shib borilmoqda. Respublika bo‘yicha jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida yig‘ilgan mablag‘larning bir ishtirokchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdori 2010 yilda 59,6 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yilda esa ushbu ko‘rsatkich 81,7 ming so‘mni tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunining ijrosini o‘rganish davomida o‘z echimini kutayotgan masalalarga ham e’tiborni qaratildi._ Qonunning 13-moddasida ish beruvchi tomonidan majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarini ochish, ularni yuritish tartibiga rioya qilish, badallarni to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni moliya, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsada, ushbu organlar orasida o‘zaro hamkorlik lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo‘yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

– muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida JBPT mablag‘larini joylashtirish ob’ektlarini belgilash:
– JBPT mablag‘larining xar bir joylashtirish ob’ektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash:

– JBPT mablag‘larini joylashtirish ob’ektlarini risklar bo‘yicha guruhlarga ajratish:
– JBPT mablag‘larini joylashtirish va investitsiya kilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

Xalq bankining Farg‘ona viloyat filiali bo‘yicha 2005-2011 yilar davomida ishtirokchi korxona-tashkilotlar tomonidan qonunning 15-moddasi talablari bajarilmagani uchun, ya’ni jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi haqidagi reestr taqdim etilmagani tufayli 1,228,4 mln. so‘m mablag‘ fuqarolarning hisob raqamlariga kiritilmagan. Faqat 2012 yil 1 may holatida reestr taqdim etmagan korxona va tashkilotlar soni 2021 tani yoki 316,0 mln. so‘mni tashkil qiladi. Xalq banki filiali va soliq organlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashish lozim darajada amalga oshmay qolgan. Davlat soliq organlari tomonidan qonunning 13-moddasida belgilangan talab qonun ijrosi ustidan nazorat etarli darajada tashkil etilmagan. Xalq bankining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari holati to‘g‘risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo‘lib, bu borada viloyat bo‘yicha 742 ming 338 nafar ishtirokchidan 587 ming 896 nafariga xabar berilgan, xolos. 154 ming 442 ishtirokchiga esa, xabarnoma jo‘natilmagan.

Shu bilan birga, joylarda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining faoliyat ko‘rsatishi masalasi yuzasidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari va buxgalterlari bilan tizimli ravishda seminarlar o‘tkazishga, qonunning afzalliklari va mexanizmlarini aholiga tushuntirishga etarli darajada e’tibor qaratilishi kerak. Respublikamizda qonun ijrosi bo‘yicha aniqlangan muammolar muhokama etilib, ularni bartaraf qilishga jiddiy ahamiyat berish lozim.

Aholining bankka ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarida saqlangan mablag‘larga

foizlarni kunlik hisoblanishini yo‘lga qo‘yish hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarining yillik harakati to‘g‘risidagi xabarnomalarni elektron tizimlar orqali ma’lumotlar berilishini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar hal tilishi kerak.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanmaydi.Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining alohida hisobini yuritadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini ko‘paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag‘lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktyabrdagi 88- son va 282-v son Qarorlari bilan «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi.

JBPT mablag‘lari quyidagi ob’ektlarga joylashtirilishi mumkin:

- O’zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlariga:
- ipoteka obligatsiyalariga:
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O’zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o‘tgan korporativ qimmatli qog‘ozlarga:
- banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga:
- qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27 - bandi talablariga javob beradigan boshqa ob’ektlarga.

O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O’zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshkaruvining qo‘shma karoriga asosan “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalk bankining JBPT mablag‘larini joylashtirish bo‘yicha majburiyatlari, Xalk bankida JBPT mablag‘larini hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, JBPT mablag‘larini joylashtirish, JBPT mablag‘larini joylashtirish ob’ektlariga ko‘yiladigan talablar, JBPT mablaglarini joylashtirishdan olinadigan mablag‘larini taqsimlash qoidalari o‘z ifodasini topgan. Nizom O’zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Konunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamgarib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, jumladan moliya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Mazkur Nizomga asosan, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari va mablag‘larni joylashtirish tushunchalari quyidagicha izohlab berilgan.Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari – Xalk bankdagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamlanadigan mablag‘lar yig‘indisidir. Mablag‘larni joylashtirish – Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishda foydalanish.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibini ko‘rib chiqamiz:

- Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari shaklida o‘tkazilgan mablag‘lar Xalk banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisob rakamida xisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 - «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag‘lar» balans hisob raqamida jamlanib boriladi;
- Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan JBPT mablag‘larining umumiy summasiga hamda kalendar yil davomida

jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining mo‘ljallangan hajmidan kelib chiqqan holda joylashtirish uchun yo‘naltiriladigan bo‘sh mablag‘lar hajmi belgilanadi;

- Xalk banki filiallarida maxsus hisobvaraklardagi JBPT mablag‘lari qoldig‘i jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan to‘lovlar summasidan kam bo‘lmasligi lozim;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalk banki tomonidan amalga oshiraladi;
- JBPT mablag‘larini ob’ektlari bo‘yicha joylashtirish kvotalari har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi.

«O’zbekistonda 2013 yilda iqtisodiyot va uning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologiyani yaxshilashni jadallashtirish va uning ko‘lamini kengaytirish ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish maqsadida 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko‘zda tutadigan Investitsiya dasturi qabul qilingan bo‘lib, ushbu maqsadlar uchun 13 milliard dollar ekvivalentida, 2012 yilga nisbatan 11 foiz ko‘p kiritildi. Ularning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag‘lar, qolgan qismini jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar tashkil etadi»[1]. Respublikamizning 2013 yilgi investitsiya dasturiga muvofiq jami kapital ko‘yilmalar 27123275 million so‘mni tashkil etadi. Reja bo‘yicha markazlashgan investitsiyalarning umumiy kapital ko‘yilmalarining 24,7 foizni, markazlashmagan investitsiyalar esa 75,3 foizni tashkil qilishi belgilandi.

Respublikamizning 2013 yilgi investitsiya dasturiga muvofiq jami kapital ko‘yilmalar 27123275 million so‘mni tashkil etadi. Reja bo‘yicha

[1]Karimov I “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

markazlashgan investitsiyalarning umumiy kapital ko‘yilmalarining 24,7 foizni, markazlashmagan investitsiyalar esa 75,3 foizni tashkil qilishi belgilandi

*8-jadval.*

**O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari**[1]

| | Moliyalashtirish manbalari | Miqdori | |
|---|---|---|---|
| | | **Million so‘mda** | **Foizda** |
| | **Jami kapital qo‘yilmalar** | 27123275 | 100,0 |
| | Shundan | | |
| 1. | Markazlashgan invstitsiyalar | 6691366 | 24,7 |
| 1.1. | Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari | 130000 | 4,8 |
| 1.2. | Sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi | 13100 | 0,5 |
| 1.3. | Budjetdan tashqari fondlar | 1876750 | 6,9 |
| 1.4. | O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 1632833 | 6,0 |
| 1.5. | Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar | 1750783 | 6,5 |
| 2. | Markazlashmagan investitsiyalar | 20431910 | 75,3 |
| 2.1. | Korxonalar mablag‘lari | 8150655 | 30,0 |
| 2.2. | Tijorat banklari va boshqa qarz mablag‘lari | 3236108 | 12,0 |
| 2.3. | To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 4563159 | 16,8 |
| 2.4. | Aholi mablag‘lari | 4481988 | 16,5 |

2013 yilda so‘m qiymatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ajratilishi 4 563159 million so‘mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Investitsion jozibadorlik ob'ekt sifatida muayyan bir miqyosda, ya'ni bironta loyiha, korxona, mintaqa, tarmoq hamda mamlakat darajasida ko‘rilishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki, mazkur tizimda korxona asosiy tayanch nuqta hisoblanib, har bir investitsiya loyihasi muayyan bir korxona miqyosida amalga oshiriladi, ushbu korxona esa iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, muayyan

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi mo‘ljallangan investitsiya dasturi to‘g‘risida» gi 1855-son Qarori.

tarmoqqa (sohaga) tegishli bo‘ladi. Ayni paytda investitsiyalarning moliyaviy manbalari tarkibiy tuzilishida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi (-jadval)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, investitsiyalarning moliyaviy manbalari tarkibida davlat byudjetining ulushi 2005 yildagi 12,7 foizdan 2013 yilda 4,8 foizga pasayishi rejalashtirilgan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa, aksincha, 19,2 foizdan 23,2 foizga ko‘tarilishi rejalashtirilgan.

9-**jadval.**

**O’zbekistonda 2005-2013 yillarda investitsiyalar tarkibining o‘zgarishi ko‘rsatkichlari**[1]

***(foizda)***

| | **Yillar** | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Moliyalashtirish manbalari** | **2005** | **2006** | **2007** | **2008** | **2009** | **2010** | **2011** | **2012** | **2013** |
| Davlat byudjeti mablag‘lari | 12,7 | 10,7 | 9,0 | 9,0 | 8,1 | 7,4 | 5,1 | 4,5 | 4,8 |
| Xorijiy investitsiyalar | 19,2 | 19,0 | 22,8 | 25,8 | 32,4 | 28,8 | 25,3 | 25,5 | 23,2 |
| Korxonalar va aholi mablag‘lari | 60,3 | 60,0 | 59,0 | 53,9 | 46,9 | 47,3 | 49,0 | 42,6 | 46,6 |
| Boshqa manbalar | 7,8 | 10,3 | 9,2 | 11,3 | 12,6 | 16,5 | 20,6 | 27,4 | 25,4 |

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar muhim investitsiya instituti hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilish, korxonalarda ishlab chiqarishni texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida qo‘yiladigan investitsiyalarni mablag‘lar bilan ta’minlashni banklar ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, 2013 yilgi Investitsiya dasturida 3236108 million so‘m mablag‘ aynan tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘lari sifatida yo‘naltirilishi muhim ahamiyatga egadir. Ushbu raqam umumiy markazlashmagan investitsiyalarning 15,9 foizini tashkil etmoqda.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: ―O‘qituvchi‖ NMIU. - 2013.–B.272.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsion yo‘nalishida foydalanishda mavjud bo‘lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo‘yicha lozim bo‘lgan kasbiy tajribaga egaligi;
- aktivlarning minimal miqdori, tarkibi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi;
- kredit tashkilotining yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektni xususiy kapitalining minimal miqdori;
- korporativ qimmatli qog‘ozlar emitentlaring rentabelliligi, moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan belgilangan boshqa talablar;

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Respublikamizda jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak.

Mijozning oylik ish haqi 1 500 000 so‘m, shundan 1 000 000 so‘mini jamg‘arib boriladigan pensiyaga o‘tkazdi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan summadan daromad solig‘i olinmaydi. Bir yildan so‘ng mijoz hisoblangan foiz bilan birgalikda jami 392 337 so‘m qo‘shimcha daromad ko‘radi.

O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining $179^2$-moddasiga muvofiq, Ish beruvchi yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari tomonidan Xalq banki filialiga fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni, fuqarolarning

shaxsiga oid ma'lumotlar bilan bog'liq o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan taqdim etmaslik yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik xuddi shuningdek hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni xodimlarga taqdim etmaslik – eng kam ish haqining ikki baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlar bilan bog'liq barcha o'zgarishlar: mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagi ma'lumotlar hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o'z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

## II BOB bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida ikkinchi bob yuzsidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Hozirgi kunda pensiya va nafaqa tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarni iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Taqsimlanuvchi pensiya tizimida ma'lum yil davomida to'plangan majburiy ajratmalar joriy davrdagi pensionerlarga to'lashga sarflanadi. Shunday qilib, ishlab turgan fuqarolarning majburiy ajratmalari hisobidan keksa kishilarni pensiya xarajatlari moliyalashtirildi.
2. Har bir pensiya tizimining o'ziga xos muhim afzalliklari mavjud. Taqsimlanuvchi pensiya tizimida to'lanayotgan pensiya miqdori moliya bozorining holatiga va investitsion faoliyatiga bog'liq emas. Jamg'arib boriladigna pensiya tizimi esa to'g'ridan-to'g'ri investitsion faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bunda moliyaviy risklar bo'lishi mumkin.

Pensiya jamg'armasi:

a. respublika va mahalliy darajadagi strategik rejalarni, ayniqsa aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirishda faol qatnashadi;
b. pensiya va bolalar nafaqasini to‘lash hamda ularni moliyalashtirishni amalga oshirish uchun markazlashtirilgan holda pul mablag‘larini jamlaydi;
c. o‘z-o‘zini moliyalashtirish printsiplari va tijorat faoliyati asosida jamg‘arma mablag‘lari miqdorini oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

3. Pensiya ta’minoti tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:
   - bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida pensiya ta’minotini modernizatsiyalash;
   - Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirish monitoringini kuchaytirish;
   - pensiya ta’minotini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida boshqarish;

3.Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimning asosida quyidagi tamoyilar yotadi:
   - jamg‘ariladigan asosga o‘tgan pensiya tizimi yalpi milliy jamg‘arish hajmini oshiradi va investitsiyalar miqdorining o‘sishiga olib keladi;
   - xususiy boshqaruv ostidagi pensiya tizimi raqobat va siyosiy aralashuvdan xoli bo‘ladi, davlat pensiya tizimiga nisbatan tez rivojlanadi;
   - jamg‘ariladigan pensiya tizimi demografik muammolarga bog‘liq bo‘lmaydi;
   - jamg‘ariladigan pensiya tizimi pensiyalar miqdorini insonning ish haqiga va pensiya jamg‘armalaridan foydalanish samaradorligiga bog‘liq ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mablag‘lari fuqarolarni ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga ham shakllanadi. Ixtiyoriy pensiya badallarini rag‘batlantirish maqsadida, mamlakatda ish haqi miqdori oshirilgan vaqtda jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy to‘langan badal summalarini mutanosib ravishda oshirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
5. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab tizim hisoblanadi. Aholini mazkur pensiya tizimi to‘g‘risida etarli bilimga ega bo‘lishi uchun ommaviy axborot vositalarida, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda va mahalla fuqarolari yig‘inlarida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim.
6. Fikrimizcha, fuqarolarni jamg‘arib boriladigan shaxsiy hisob varaqlaridagi mablag‘larning inflyatsiyadan saqlanishi va uzluksiz ko‘payib borishini ta’minlanishi bo‘yicha Xalq banki ma’lumotlari aholiga doimiy ravishda etkazilishi lozim.
7. Budjetdan tashqari Pensiya Jamg‘armasi tarkibidagi boshqarmalar va bo‘linmalar o‘rtasida elektron hujjatlar aylanishi qattiq himoyalangan axborot tizimi ishlashi maksadga muvofiq bo‘ladi.

# III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIY HIMOYA VA PENSIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

## 1.Ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta'minotining xorijiy tajribalari

Jahon tajribasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish mexanizmining uch xil turi ko'p uchraydi.

1. Barcha mamlakatlarda keng tarqalgan byudjet daromadlardan moliyalashtiriladigan davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish.
2. Ixtiyoriy va majburiy shaxsiy jamg'arma rejalarni amalga oshirish.
3. Iqtisodiy inqiroz, inflyatsiya, jamg'armalarni yo'qotishdan va jamg'armani qadrsizlanishga olib keladigan investitsion risklardan himoya qiladigan sug'urta tizimini rivojlantirish.

Zamonaviy pensiya tizimini tashkil etishda jahonga mashhur Germaniya va Chili modellari andoza sifatida tanlanmoqda. Pensiya ta'minotining ikki modeli taqsimot-tortiluvchan va kapitallashgan modellaridir. Mashhur venger iqtisodchisi Ya.Kornai taqsimot va kapitallashgan pensiya tizimlari o'rtasidagi farq mohiyatini asoslab berdi, ular o'rtasidagi farq moliyalashtirish mexanizmida yuzaga chiqadi. Taqsimot modeli pensionerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholi-ning iqtisodiy faol qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallashgan modeli taqsimotdan farqli ravishda insonning o'z mehnati va pensiya jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'liq.

Germaniyada taqsimot-tortiluvchan pensiya tizimi 1891 yilda joriy qilingan, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Evropa mamlakatlarida, Vengriyada va MDH davlatlarida qo'llanilmoqda. Germaniyaning pensiya tizimidagi taqsimot-tortiluvchan modeliga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisobidan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy daromadlar hisobidan qoplanadi. Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan. Bir avlod ichida esa, daromadlar aholining alohida ijtimoiy guruhlari o'rtasida

tabaqalandi. Germaniyada to‘lov intizomini rag‘batlantiruvchi ball tizimi taqsimot modelini to‘ldiradi.

Chili modeli-kapitallashgan model. Ushbu model erkin bozor islohotlari doirasida Chili mutaxassislari tomonidan ishlab chiqildi. 1981 yildan mehnat munosabatlarida ishtirok etgan har bir kishi uchun davlat pensiya ta’minoti bilan bir vaqtning o‘zida ular xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi.

Kapitallashgan model mohiyati quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya qilishdan va to‘plashdan hosil bo‘lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi. Pensiya badallari kapital to‘lovchining shaxsiy hisobraqamida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobraqam pensiya fondlari yoki pensiya kassalari, sug‘urta kassalari yoki banklar yuritadi.

Pensiya mablag‘larini tizimli investitsiya qilish bilan ushbu institutlar investitsiya daromadlariga ega bo‘ladi. Kapital yoki yig‘ilgan pensiya badallari summasi ularni investitsiya qilishdan olingan daromad pensiya fondi faoliyati xarajatlari, natijasida kapitallashgan pensiyaning moliyaviy manbasidir. Avlodlar birdamligi asosida qurilgan taqsimot modeli va kapitallashgan model sug‘urta tamoyiliga asoslanadi. Kapitallashgan model «Chili modeli» nomi bilan xalqaro miqyosda mashhur bo‘ldi.

Ko‘pgina mamlakatlar bir qator pensiya islohotlarini amalga oshirdilar. Chexiyada pensiya bilan ta’minlashni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari zararli va og‘ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug‘urta qilingan badallariga qo‘shimcha badallar kiritish, to‘langan badallar va olingan pensiyalar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish, ko‘p rejali sug‘urta tizimini rivojlantirish, individual pensiya rejalari imkoniyatlarini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirishdan iborat.

Xorijiy mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi va mehnat pensiyasini olish uchun talab etiladigan staj quyidagi 10-jadvalda aks ettirilgan. Davlatning byudjetdan tashqari fondlari moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

**10-jadval**

**Xorijiy mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi va davlat pensiyasida talab etiladigan staj[1].**

| MAMLAKATLAR | PENSIYAGA CHIQISH YOSHI | | TALAB ETILADIGAN STAJ | |
|---|---|---|---|---|
| | erkaklar | ayollar | Erkaklar | ayollar |
| **Rivojlangan mamlakatlar** | | | | |
| Buyuk Britaniya | 65 | 60 | 44 | 39 |
| Gretsiya | 65 | 60 | 12 | 12 |
| Germaniya | 65 | 65 | 5 | 5 |
| Ispaniya | 65 | 65 | 15 | 15 |
| Italiya | 65 | 60 | 18 | 18 |
| Frantsiya (2011 yil) | 62 | 62 | 40 | 40 |
| AQSh | 66 | 60 | 10 | 10 |
| Yaponiya | 65 | 65 | 25 | 25 |
| **Tanlangan davlatlar ichida o‘rtacha** | **64,5** | **62,6** | **21,2** | **20,5** |
| **Rivojlanayotgan mamlakatlar** | | | | |
| Rossiya | 60 | 55 | 5 | 5 |
| Argentina | 65 | 60 | 30 | 30 |
| Braziliya | 65 | 60 | 15 | 15 |
| Venesuela | 60 | 55 | 14 | 14 |
| Vengriya | 62 | 61 | 15 | 15 |
| Meksika | 65 | 65 | 24 | 24 |
| Polsha | 65 | 60 | 25 | 20 |
| Turkiya | 60 | 58 | 20 | 20 |
| Chexiya | 62 | 60 | 10 | 10 |
| Chili | 65 | 60 | 10 | 10 |
| JAR | 65 | 60 | | |
| Janubiy Koreya | 60 | 60 | 20 | 20 |
| **Tanlangan davlatlar ichida o‘rtacha** | **62,8** | **59,5** | **17,1** | **16,6** |

«Budjetdan tashqari fondlar – Rossiya Federatsiyasi sub’ektlari va mahalliy byudjetlarning byudjetdan tashqari shakllanadigan pul mablag‘lari bo‘lib,

[1] Pensions at Glance; **Social** Programs throughout the World.

fuqarolarning pensiya ta’minoti konstitutsion huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam, shuningdek, byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa umumijtimoiy ehtiyojlar xarajatlariga yo‘naltiriladi».[1] Pensiya tizimi kasallik, keksalik, baxtsiz hodisa tufayli mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotish holatlarining oldini olish-ga qaratilgan ijtimoiy himoyadir. Ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan mamlakatlarda pensionerlarni ijtimoiy jihatdan himoya kilish vazifasi an’anaviy ko‘rinishda, ya’ni fuqaro pensiya huquqining aksariyat qismi uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda ishlab topiladi.

Agar qonun asosida o‘rnatilgan pensiya minimumi miqdorini ta’minlash uchun mablag‘ etmasa davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Sug‘urta tashkilotlari davlat va nodavlat shakliga ajratiladi, majburiy va ixtiyoriy sug‘urtalash sohasida ichki, tashqi va aralash bozorlarda o‘z xizmatlarini ko‘rsatadi. Tashkiliy shakliga ko‘ra sug‘urtalash tuzilishi 5-rasmda tasvirlangan va quyidagicha izohlanadi:

- davlat, bunda davlat sug‘urtachi sifatida ishtirok etadi;
- aktsiyadorlik, bunda jismoniy shaxslarga tegishli ustav kapitaliga ega (aktsiya, qimmatli qog‘ozlar) turli jamiyatlar ko‘rinishida xususiy kapital sug‘urtachi sifatida ishtirok etadi;
- o‘zaro, bunda nodavlat tashkiliy shakllari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ulushli asosda va tijorat maqsadida emas, balki o‘zlarining mulkiy manfaatlarini sug‘urtali himoya qilish maqsadida yaratadi.

Sug‘urta huquqlarining shakllanishini rag‘batlantirish muammosi ham birmuncha murakkab kechadi. Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatishicha, ishlovchiga qarilikda odatdagi moddiy turmush darajasi bilan ta’minlash imkonini beradigan yo‘qotilgan ish haqini qoplash darajasi sug‘urta mezoni sifatida qabul qilingan. Shu maqsadda uning ijtimoiy-

---

[1] Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: Юрайт. 2012. –С.39.

iqtisodiy mazmunini o‘zgartirmaydigan qoplash koeffitsenti u yoki bu ko‘rinishda qo‘llaniladi




***5.-rasm.*** **Sug‘urta kompaniyalarining tashkiliy shakliga ko‘ra tasniflanishi**[1]

[1]Сахарова Н.П. Страхование. Учебное пособие.- М.: «ПРОСПЕКТ».2012. – С.30.

Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra qoplash koeffitsenti minimal miqdori yo‘qotilgan ish haqining 40 foiziga teng bo‘lishi, har bir pensionerga 5-6 ishlovchi to‘g‘ri kelishi va to‘lovlar davlatning birdamlik tamoyiliga asoslangan bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda, taraqqiy etgan mamlakatlar jamg‘ariladigan pensiya tizimi va korporativ pensiya fondlariga qo‘shimcha to‘lovlarni joriy etish hisobidan ishlovchilarning mehnat daromadlarini qoplash koeffitsenti miqdorini keskin oshirdilar. Jumladan, Evropa Ittifoki mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich 65foizni tashkil etib, fuqarolarning mehnat faoliyatini tugatganidan so‘ng yuqori darajada daromad bilan yashash imkoniyati ta’minlamoqda.

Dunyo mamlakatlarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar birdamlik qoplash koeffitsenti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo‘ladi.

«Hozirgi vaqtda O’zbekistonda pensiyalarning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 25,7 foiz, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iborat. Joriy 2014 yilda mamlakatimizda bu ko‘rsatkichni 41 foizga etkazish ko‘zda tutilmoqda»[1]. “Rossiyada o‘rtacha qoplash koeffitsenti miqdorini 2012 yildagi 34 foizdan 2030 yilda 20 foizga qisqartirish va 2015 yilda mehnat bozoriga kirib keluvchi yosh avlod uchun birdamlik pensiya tizimida o‘rtacha ish haqidan 35 yil mobaynida to‘liq pensiya to‘lovlarini to‘lagan holda qoplash koeffitsentining 40 foiz bo‘lishi rejalashtirilmoqda”[2].

Har bir mamlakat pensiyani sug‘urtalash tizimi sifatini baholashning muhim mezonlaridan biri - ishlayotgan aholining ijtimoiy sug‘urtalash bilan

---

[1]Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

[2]Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.29.

qamrab olinish darajasi hisoblanadi. Shuningdek, har bir mamlakatda amal qilayotgan pensiya tiziminig sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlar qatoriga pensiya miqdorinig munosibligi va etarliligi, uzoq muddatda barqaror faoliyat ko‘rsatishi, tashqi omillarga nisbatan barqarorligi kiradi.

***11jadval.***

***Dunyo mamlakatlari bo‘yicha pensiya tizimida birdamlik qoplash koeffitsentining o‘zgarishi[1].***

| Mamlakatlar | Birdamlik qoplash koeffitsenti %da | Mamlakatlar | Birdamlik qoplash koeffitsenti %da |
|---|---|---|---|
| **Taraqqiy etgan mamlakatlar** | | **Rivojlanayotgan mamlakatlar** | |
| Avstraliya | 42 | Rossiya | 35 |
| Avstriya | 72 | O’zbekiston | 37,5 |
| Belgiya | 39 | Bolgariya | 44 |
| Buyuk britaniya | 29 | Vengriya | 72 |
| Germaniya | 41 | Meksika | 38\34 |
| Gretsiya | 94 | Polsha | 56 |
| Irlandiya | 34 | Ruminiya | 29 |
| Ispaniya | 73 | Slovakiya | 56 |
| Italiya | 69\54 | Turkiya | 86 |
| Kanada | 42 | Chexiya | 47 |
| Niderlandiya | 89 | Koreya Respublikasi | 40 |
| Norvegiya | 54 | Ushbu mamlakatlar bo‘yicha o‘rtacha daraja | 50,0\51,6 |
| Portugaliya | 54 | Evropa Ittifoqi bo‘yicha o‘rtacha daraja | 49,7 |
| Frantsiya | 51 | | |
| AQSh | 37 | | |
| Yaponiya | 34 | | |
| Ushbu mamlakatlar bo‘yicha o‘rtacha daraja | 53,4\ 52,4 | IHTT bo‘yicha o‘rtacha daraja | 57,6\ 56,4 |

Masalan, AQSh da YaIM da aholi shaxsiy jamg‘armalarini ulushi XX asrning 60-70 yillarida 8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 90- yillarida kelib, ushbu

[1] Pensions at Glance; OECD. 2009.

ko‘rsatkich 5 %ga teng bo‘ldi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, samarali faoliyat yurituvchi davlat pensiya tizimi quyidagi xalqaro talablarga javob berishi lozim:

- majburiy ishtirok - pensiya tizimi majburiy to‘lovlar hisobiga shakllanadi;
- moliyaviy barqarorlik - pensiya fondiga to‘lanadigan badallar to‘lanadigan pensiya summasini to‘liq qoplashi kerak;
- pensiya bilan ta’minlanganlik - pensiya olish huquqiga to‘langan badallar hisobiga erishiladi va uning qiymati pensiya fondiga to‘lanadigan badallar qiymatiga va to‘lov davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi;
- pensiya tizim barqarorligini muntazam baxolash amaliyoti qo‘llaniladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarini ta’minlash usullari va uning tarkibi respublikamizda avlodlar birdamligi pensiya tizimi saqlanib qolayotganligi va rivojlanayotganligini bildiradi. O’zbekistonda avlodlar birdamligi tizimi aholining ayrim qatlamlari tomonidan adolatli tizim sifatida qabul qilinmokda. Mazkur tizimda ishlayotgan avlod o‘z mehnati natijalarini qayta taqsimlash hisobiga pensionerlarni ta’minlab turibdi.

Hozirgi kunda birdamlik va jamg‘arish tizimiga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimining salbiy jihatlariga davlat pensiya tizimining monopol holatga ega bo‘lishi, pensiya miqdorini tenglashtirish unsurlarinig kuchayishi, ijtimoiy boqimandalikning ortishi va jamg‘armaga bo‘lgan aholi moyilligining susayishini kiritish mumkin.

Xorijiy mamlakatlardagi pensiya tizimi modellarida davlat pensiya fondlari, jamg‘arib boriladigan xususiy pensiya tizimi, davlat ijtimoiy sug‘urta fondlari, majburiy tibbiy sug‘urta fondlari, aholi bandligi fondlari ko‘rinishida ifodalanadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarining pensiya tizimidagi asosiy muammolari bir xil: ular pensiyaga chiqish yoshining barvaqtligi, byudjetga daromadlarning to‘liq tushmasligi, pensiya to‘lovlari uchun xarajatlarning kattaligi, imtiyozli pensiyalarning mavjudligi, pensiyalarga

inflyatsiyaning ta’sirida ekanligidan iborat. Aholining qarishi, tug‘ilishning kamayishi kabi demografik muammolar aholining faol qismi bilan pensionerlar o‘rtasidagi nisbatning buzilishiga olib keladi.




***6-rasm. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning pensiya tizimiga ta’siri[1].***

Pensiya to‘lovlari «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan, yani pensiyalar ishlayotganlarning badallari hisobiga to‘lab boriladi. Shuning uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar soni o‘rtasida ma’lum bir muvozanat bo‘lishi kerak. Lekin demografik holat va ishsizlar sonining ortib borishi natijasida kelajakda bu muvozanat buzilishi mumkin. Mustaqillikka erishgan

[1] Dissertant tomonidan matn asosida tuzildi.

mamlakatlar pensiya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlarga yordam berish maqsadida Londondagi iqtisod maktabida Pol Jonson tomonidan kompyuterda ushbu tizimni takomillashtirishning modeli yaratildi. Bu model Jahon bankining Iqtisodiy rivojlantirish institutini konsultantlari tomonidan Qozog‘iston Respublikasida sinab ko‘rildi. Taqdim qilingan model yordamida 1995 yildan 2075 yilgacha yillik prognozlar qilindi, ushbu model yordamida har xil parametrlar va kombinatsiyalar bilan kelgusi davrlar uchun xulosalar qilish imkoni yaratiladi. Mazkur model ikkilamchi pensiya fondlarini jalb qilish yo‘li bilan pensiya tizimini fundamental qayta qurish yo‘lini ko‘rsatdi. Modelda Jahon banki ma’lumotlari asosidagi aholi tarkibi o‘zgarmas element bo‘ladi. Pensionerlarning umumiy soni, badal to‘lovchilarning soni, o‘rtacha ish haqi, o‘rtacha pensiya miqdori, pensiyani moliyalashtirish uchun kerak bo‘ladigan majburiy ajratmalar stavkasi o‘zgaradi. Agar shu parametrlar har yilga kiritilsa, 2075 yilgacha bo‘lgan davr uchun tahlil natijalarini olish mumkin.Mazkur modelda xulosa sifatida har yilgi pensiya tizimini moliyalashtirish uchun kerak bo‘ladigan badal stavkalari, pensionerlar bilan badal to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabat, har yilgi pensiyalarning boshlang‘ich yildagi pensiyaga nisbatan real qiymati, har yilgi davlat, xususiy va kombinatsiyalashgan tizimdagi o‘rtacha pensiya miqdori, badal stavkalari kabi ma’lumotlar aniqlanadi. Jahon banki mutaxassislarining takliflari asosida pensiya yoshini asta-sekin erkaklar va ayollar uchun 65 yoshga ko‘tarish ko‘zda tutilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiya ta’minoti tizimi bilan bir qatorda davlat tasarrufida bo‘lmagan xususiy pensiya ta’minoti ham mavjud. Uning zarurligi quyidagi ikki asosiy sabablardan kelib chiqadi. Birinchidan, bozor munosabatlari va demokratiya fuqarolarga ko‘proq erkinlik va davlat tasarrufidan mustaqil bo‘lish imkonini berish bilan bir qatorda, ularga o‘z hayotlarini farovon qilish, jumladan, ijtimoiy jihatdan ta’minlanish borasida katta mas’uliyat yuklaydi. Ikkinchidan, har bir davlat qanchalik rivojlangan bo‘lishidan qat’iy nazar, moliyaviy imkoniyatlarining che-garasi mavjud. Davlat fuqarolarni, ular mehnat qobiliyatlarini yo‘qotgunlariga qadar bo‘lgan ijtimoiy

himoyalanganlik darajasida ijtimoiy ta’minlash imkoniga ega emas. Shuning uchun har bir davlat fuqarolarning ijtimoiy ta’minlanganlik darajasini o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Amaldagi pensiya tizimi keskin islohotlarni jadal davom ettirish, Pensiya jamg‘armasi balansida yuzaga keladigan taqchillikni bartaraf qilish va aksincha, ijobiy qoldiqqa erishish imkoniyatlarini beradi.

## 2.Aholini ijtimoiy himoyalashda ish haqini to‘lash muammolarini xal etilishi

O’zbekiston Respublikasida ish haqi to‘lash bo‘yicha oqilona siyosat olib borilmoqda. Ish haqi to‘lashga doir qarorlarni qabul qilishda aholini ijtimoiy himoyalash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

“Mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan»[1]. Bir tomondan mehnat unumdorligini oshirmay turib ish haqini ko‘paytirib bo‘lmaydi, boshqa tomondan ish haqi miqdori mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda yirik sanoat korxonalaridagi unumdorlik me’yorlariga asoslanib ish haqini hisoblash ba’zi tarmoqlar uchun samarali bo‘lishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Sanoat korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlik asosida aholi turmush darajasini oshirishda mehnat unumdorligining o‘sib borish qonuni muhim omil hisoblanadi. Korxonalardagi mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risidagi nazariyalar turli ilmiy maktablar namoyondalari tomonidan o‘rganilgan.

Iqtisodchi olimlardan B.M.Genkinning ta’kidlashicha, har kim o‘z mehnatiga yarasha rag‘batlantirilishi zarur. T.Edikson boshchiligidagi bir guruh iqtisodchi olimlar mehnatga xaq to‘lash mehnatning aqliy yoki ijodiy faoliyat bilan bog‘liqligiga asoslanishi lozim, degan fikrni ilgari suradi. A.Marshall mehnatiga xaq to‘lash - mehnatning cheklangan unumdorligi

[1]Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Mehnat. 2011. –B.51.

printsipi asosi bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi, ba’zi qiyin mehnat turlari uchun ish xaqi to‘lash ishlab chiqarish natijalarini inobatga olib bo‘lmasligini aytdi. Ish haqi to‘lashning mehnat unumdorligi bilan bog‘liqligini asoslash maqsadida turli qo‘shimcha to‘lovlar to‘lashni joriy qilish to‘g‘risida ko‘plab fikrlar bildirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquqlari, erkinlik va burchlari, kafolatlari belgilab qo‘yilgan. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida belgilab qo‘yilganidek, «Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi»[1].

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga binoan har bir shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalannsh huquqlari belgilangan. Barcha mehnat qonunlari Xalqaro mehnat tashkiloti konventsiyasi qoidalari asosida yaratilgan va davlat tomonidan tasdiqlangan. Har bir xodim o‘z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo‘lmagan miqdorda haq olish, belgilangan ish vaqti, dam olish va yillik mehnat ta’tilidan foydalanish, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish, malakasini oshirish, pensiya olish va boshqa zarur huquqga ega. Majburiy mehnat O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 7-moddasi bo‘yicha taqiqlangan bo‘lib, u ayrim hollarda jazo muddatini o‘tayotgan jinoyatchilarga nisbatangina saqlanib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir insonning mehnatini tayin etish, baholashdan kelib chiqqan holda individual yondoshish, mazmunan qiziqarli ish haqining miqdori, mehnat sharoiti, xizmat pog‘onalaridan yuqorilanish, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish kabi omillarni hisobga olish zarur bo‘ladi. Mehnatning ijtimoiy mohiyati va uning huquqiy ta’minotinini ko‘rsatuvchi muhim yo‘nalish fuqarolarning o‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda ishlashi tartibga solish, shunindek, aholi daromadlarini ko‘paytirish uchun shart-sharoitlar

[1]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston. 2013. –B.11.

yaratish bilan bog‘liq. Shu maqsadda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012 yil 18 oktyabrda “O’rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 297-Qarorinini qabul qildi. Mazkur Qarorga ko‘ra, fuqarolar asosiy ishga qo‘shimcha ravishda o‘rindoshlik asosida ishlash huquqiga ega. O’rindoshlar o‘rindoshlik asosidagi ish joyi bo‘yicha vaqtincha mehnatga layoqatlik nafaqasi olish, ayollar esa homiladorlik va tug‘ish nafaqalari olish huquqiga ega.

Hisob-kitoblarni bugungi kundagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yoki jami mehnat haqi fondiga nisbatan aniqlaganda natija, albatta, korxona uchun yanada yuqori bo‘lishini kuzatish mumkin. Bu holat qaysi nisbatda bo‘lishi kerak, - degan savol tug‘iladi. To‘g‘ri barcha to‘lovlar va ushlanmalarni olib tashlash mumkin emas, negaki ular davlat maqsadli jamg‘armalarning daromad manbalari bo‘lib, maqsadli xarakterga ega. Lekin bu erda gap ularni kamaytirish yoki olib tashlash to‘g‘risida emas, balki imkon qadar optimallashtirish haqida ketmoqda. Qator yillar davomida davlatning ijtimoiy sohani isloh qilish borasidagi harakatlari natijasida Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan yagona ijtimoiy to‘lov 40 foizdan 25 foizga tushirildi. Lekin bu erda faqat ularning foiz stavkalarini tushirish haqida ham emas, balki ajratmalar ob’ektini to‘g‘ri tanlash mezonlari haqida ham gap borishi kerak.

Mehnat haqidan ajratmalar, soliqlar va turli ushlanmalar summasining yuqori darajasi ish beruvchilarni doimo mazkur xarajat moddasini imkon qadar kamaytirishga va uni oshirmaslikka undaydi. Shu sabab mehnat haqining xodim qo‘liga teguvchi qismi bilan uning nomidan korxona tomonidan to‘lanadigan turli to‘lovlar (ajratmalar, soliqlar, ushlanmalar) summasi orasidagi nisbat qat’iy normada belgilanishi lozim. Ish beruvchining o‘z xodimlariga mehnat haqini ko‘proq yoki ortiqcha hisoblashi samarasiz vositaga aylanar ekan, bu holat uni mehnat haqini berishni hisobdan tashqari yo‘llarni axtarishga undaydi va bunga moyillik doimo ustun bo‘ladi

“Hozirgi tez sur’atlarda rivojlanish sharoitida har qanday davlat o‘zining mavjudligini agarda ma’lum daromadlar tizimiga ega bo‘lsa va bu daromadlar

har bir soliq to‘lovchini davlat hal qilishi lozim bo‘lgan asosiy maqsadlarga yo‘naltira olsagina fuqarolarni ijtimoiy kafolatlay oladi”[1]. Shuning uchun eng to‘g‘ri soliq siyosati bir tomondan, jamiyat ehtiyojlariini qoniqtirish uchun kerak bo‘lgan moliyaviy mablag‘larini soliq solish orqali to‘plash bo‘lsa, boshqa tomondan ushbu soliq yukining haddan tashqari oshib ketmasligi choralarini ko‘rishdir. Mehnat haqini to‘lashda bir talay muammoli jihatlar mavjudki, ularni bartaraf etish mehnat haqi to‘lash tizimini sifat o‘zgarishiga olib keladi:

1.Mehnat haqini hisob-kitobidagi muammoli jihatlaridan biri - ularning o‘z vaqtida to‘lanishi muammosidir. Mehnat haqi to‘lovlaridagi sun’iy tusiqlar (kommunal to‘lovlarni amalga oshirish va qarzdorlikning yo‘qligi haqida ma’lumotnomalarni yig‘ib olish, obuna bo‘lish, raxbarning turli ko‘rsatmalarini bajarish) qo‘shtirnoq ichidagi muammoli jarayonlar hisoblanadi. O’zbeqiston Respubliqasi Mehnat qodeqsining 164-moddasiga muvofiq umumiy qoidaga ko‘ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda esa, sudning qaroriga asosan mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkinligi, shuningdek, qaysi xollarda xodimning roziligidan qatiy nazar, mehnat xaqidan ushlab qolinishi mumkinligi belgilangan.

O’zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxqamasining 2002 yil 19 martdagi 88-son “Ish xaqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq vazirliqlar, idoralar, xo‘jaliq birlashmalari, mulqchilik shakllaridan qat’iy nazar qorxonalar va tashkilotlar raxbarlari xodimlarga ish haqi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi uchun shaxsan javob berishlari, xar bir xodimni tegishli davrda unga to‘lanadigan ish xaqining tarkibiy qismlari, ushlab qolingan pul miqdorlari va uning asoslari, shuningdeq to‘lanadigan umumiy pul summasi to‘g‘risida majburiy tartibda yozma shaklda xabardor qilishlari belgilangan. Shuning bilan birgaliqda, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yil 22 oqtyabrdagi 147-sonli buyrug‘iga

---

[1]Тютюриков Н.Н. Налоговая системы зарубежныых стран. Учебник. -М.: Издательство-торговая корпорация Дашков и К.2010. –С. 24.

muvofiq turli madaniy va ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun korxona va muassasalar tomonidan majburiy va noqonuniy ravishda xomiylik mablag‘lari o‘tkazmasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Budjet tashqilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar hamda Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari tasarrufchilari xodimlarining‘ ish haqidan O’zbeqistan Respublikasining qonun hujjatlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida aniq belgilab qo‘yilgan yoki xodimning o‘z ehtiyojlari uchun (kasaba uyushmasiga badallar, farzandlari uchun maktabgacha va boshqa ta’lim muassasalarida o‘qishi uchun to‘lovlar, olingan bank kreditlari bo‘yicha to‘lovlar, alimentlar) to‘lovlardan tashqari qonun xujjatlarida hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida qo‘zda tutilmagan, uchinchi shaxs foydasiga (turli madaniy va ommaviy tadbirlar, festivallar, turli birlashmalar yoki jamg‘armalarga badallar va to‘lovlar) ushlab qolish qo‘rinishidagi to‘lovlar xodim ish xaqisini o‘z ixtiyoriga olganidan so‘ng, ya’ni mablag‘lar xodimning bank plastik kartochkasiga o‘tkazib berilganidan yoki naqd pul ko‘rinishida berilganidan so‘ng xodim tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin, G’aznachilik bo‘linmalarida bunday to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

1. Kichik biznes sub’ektlarida ish haqini hisoblashning amaldagi tartibida ba’zan shunday hollar xam kuzatiladiki, aksariyat ishchilarga qo‘yiladigan asosiy talab ish haqini kelishilgan to‘lovidan tashqari to‘lovlariga (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini tayinlash, xomidorlik nafaqasini to‘lash, mehnat ta’tiliga chiqish kabi ijtimoiy xarakterdagi to‘lovlarga) aksariyat holatlarda amal etilmaydi.
2. Xalqaro amaliyotda mehnat haqini berishda ko‘pincha konvert usulidan foydalaniladi. Buning uchun aslida ildizi mehnat haqidan to‘lovlar, ajratmalarga borib taqaladi. Shu sababli, mehnat haqini qaysi shaklda hajmda to‘lashdan qat’i nazar to‘lovlarning shunday tartibini joriy etish lozimki, bu tartib ish beruvchi va ishlovchining egoistik qiziqishlariga ustunlik bermaydigan, shu jumladan, ijtimoiy jihatdan maqbul tizimni

shakllantirishi kerak. Shuningdek, mehnat haqi va undan ajratmalar, ushlanmalar darajasini belgilashda davlat siyosatini ham uzviy aloqadorligini ta’minlashi lozim.

3. Mehnat haqi hisobining muammoli jihatlaridan yana biri - respublikada korxona va tashkilotlarda o‘rtacha ish haqi darajasini oshirish va uni asta-sekin rivojlangan davlatlar darajasiga etkazish orqali ijtimoiy jihatdan farovon hayotni yo‘lga qo‘yish masalasidir. Dunyo amaliyotida mehnat haqini minimal darajasini belgilashda ikkita yondoshuvga tayaniladi:
   – ish haqining oylik, kunlik, soatlik normalariga nisbatan normativini belgilash orqali hisoblanadigan minimal ish haqi;
   – mamlakat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining darajasidan kelib chiqib, belgilanadigan mehnat haqi.

Birinchi usulda ishchi va uning oilasining fiziologik talablari bo‘yicha hayotiy zaruriy hisoblangan elementlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim, tibbiy xizmat)ning minimal normalariga qiymati baza sifatida olinadi. Ushbu usul ko‘proq rivojlanayotgan va rivojlanish sur’atlari past bo‘lgan dunyo davlatlari amaliyoti uchun xos hisoblanadi. Ikkinchi usul bo‘yicha minimal ish haqi mamlakat bo‘yicha mehnat haqiga nisbatan belgilanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan uning taklif etilgan normativ darajasi 50 foiz, Evropa Ittifoki davlatlari uchun 60 foiz belgilangan. Shuningdek, Evropa Kengashining ijtimoiy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan ushbu ko‘rsatkichning eng quyi darajasini 50 foizdan tushirmaslik shartlari belgilangan. Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkich Yaponiyada 40 foizdan ortiqni, AQShda 50 foiz, Frantsiyada 60 foiz, Niderlandiyada esa 50 foizni tashkil etgan[1].

Respublikamizda mehnat haqini minimal darajasining o‘zgarish dinamikasini jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, deyarli yigirma yil davomida ish haqi minimal ko‘rsatkichi ijobiy tomonga o‘zgardi (12.-jadval).

---

[1]Ветлужских Е. Мотивация и оплата труда. Инструменты. Методики. Практика. –Москва. Альпина Паблишер. 2013. –С.29.

*12 -jadval*

***O'zbekistonda mehnat haqining minimal darajasini o'zgarishi*[1]*.***
***(1973-2013yillarda)***

| **Davriyligi** | **Minimal ish haqi darajasi** |
|---|---|
| 1973 yil | 70.0 Rubl |
| 01.01. 1992 yildan - 01.01. 1993 yilgacha | 350.0 rubldan-16200 rublgacha oshgan |
| 01.12. 1993 yildan - 01.06. 1994 yilgacha | 24300 so'm kupondan-70000 so'm kuponga qadar ko'tarilgan |
| 01.07. 1994 yildan - 01.12. 2013 yilgacha | 70 so'mdan – 96105so'mga qadar ko'tarilgan |

O'zbekiston Respublikasi YaIM, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora- tadbirlar turmush sifatining yuksalib borishini ta'minladi. Mamlakitimizda kuchli ijtimoiy siyosatnining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aholi daromadlari va turmush darajasiniing oshishiga olib keldi. «Xalqimizning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2011 yilda 1991 yilga nisbatan AQSh dollari qiymatida 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta'minladi»[2].

Respublikamizda mehnat haqining eng quyi darajasi 2014 yil 1 yanvar holatiga 96105 so'm qilib belgilangan. Bugungi kunda davlat o'rtacha ish

---

Uzbekiston Respublikasi statistika kumitasining ma'lumotlari.

[2]Tolametova Z. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi turmush darajasini oshirish. // Iktisod va moliya. - Toshkent. 2013.№ 5. – B.46.

haqi darajasini kelgusida rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarishdek murakkab vazifani qo‘yilganini boisi shundan iborat. Davlat tomonidan xalq farovonligini, barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo‘nalish qilib belgilab, shu yo‘l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko‘zlab, uning farovonligi uchun amalga oshiriladi. Har qaysi oiladagi farovonlik, fuqarolarning hayotga bo‘lgan munosabati, pirovard natijada butun jamiyatimizning barqarorligi, avvalo, fuqarolarimizning qanday ish bilan ta’minlangani, o‘z mehnatiga yarasha munosib mehnat haqi olishiga bog‘liq.

## 3.O’zbekiston Respublikasida islohotlar asosida pensiya tizimni rivojlantirish yo‘nalishlari

Inqirozga qadar aksariat mamlakatlar ish haqining pensiya to‘lovlari darajasiga ta’sirini saqlab qolishdi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, pensiya miqdorini indeksatsiyalash inflyatsiya koeffitsentiga asosan, amalga oshirish samarali va istiqbolli usulda hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya miqdorini indeksatsiyalash usuli qo‘llaniladi.

Qolgan mamlakatlar ishlovchilarga pensiya chiqqanidan so‘ng ish haqi unsurini indeksatsiyalashga qo‘shmoqda. Pensiya miqdorini ish haqiga asoslangan holda indeksatsiyalashdan inflyatsiya koeffitsentiga qarab indeksatsiyalashga o‘tish pensionerlarni qisqa muddat ichida ijtimoiy jihatidan yaxshi himoya qilish imkonini beradi. Ularning to‘lov qobiliyatini saqlaydi va bir vaqtning o‘zida pensiya tizimining uzoq istiqbolda moliyaviy ta’minlash imkonni berdi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, pensiyaga chiqqunga qadar ish haqini indeksatsiyalashda asos sifatida o‘rtacha ish haqining o‘sishini qo‘llash lozim. Pensiyaga chiqqandan keyin esa pensiya to‘lovlarini inflyatsiya koeffitsentiga qarab indeksatsiyalashga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

***13.-jadval.***

***Pensiya tizimini isloh etishga qaratilgan chora-tadbirlar[1].***

| **Qabul qilinadigan chora-tadbirlar** | **Qo‘llaniladigan mamlakatlar** |
|---|---|
| Pensiya badali stavkasini o‘zgartirish | Ruminiya, Rossiya |
| Pensiya tizimining ikkinchi darajasida pensiya badali stakasini o‘zgartirish | Ruminiya, Litva |
| Pensiya tizimining ikkinchi darajasiga kirish va undan chiqishga ruxsat berish | Slovakiya, Vengriya |
| Indeksatsiyalash shaklini o‘zgartirish minimal va asosiy stavkani qisqartirish | Serbiya, Vengriya |
| Pensiyaga chiqish yoshini oshirish | Vengriya |
| Pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish | Polsha, Vengriya, O’zbekiston |

Pensiya tizimini isloh qilish muhim yo‘nalishlaridan biri - pensiyaga chiqish yoshini oshirish, jumladan erkaklar va ayollarning pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyat qismida pensiya tizimini isloh etishning ustuvor yo‘nalishi sifatida pensiyaga chiqish yoshini asta-sekin 67 yoshga etkazish amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi pensiyaga barvaqt chiqishdagi turli imtiyozlarni mavjudligi tufayli pensiyaga chiqishning o‘rtacha yoshi taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan pastroq hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar oldidagi turli masalalar mavjudligiga qaramasdan bosh masala-pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini uning etarli darajasini kafolatlash bilan qanday qilib uyg‘unlashtirish vazifasi turibdi. Ushbu vazifa yangi emas, biroq, moliyaviy inqiroz asosan birdamlik pensiya tizimini qo‘llovchi mamlakatlarda uni keskinlashtirdi. Chunki bir vaqtning o‘zida pensionerlar daromadini oshirish, ishlovchilarga tushadigan demografik og‘irlikka ko‘paytirmaslik va pensiya fondlarining taqchilligini

[1]Пенсионные системы в период кризиса: Регионалный доклад по странам Европы и Центральной Азии. Документ все мирного банка. 2009. –С. 14-15

qisqartirish vazifasini hal etib bo‘lmaydi. Pensiya tizimini isloh etishning yana bir muhim omillaridan biri - bu turli jamg‘ariladigan dasturlarda pensionerlar ishtirokini kengaytirish hisoblanadi. Masalan, Chili Janubiy Koreya va Meksikada ish haqi pensionerlar daromadining yarmini tashkil etgani holda, Estoniya, Sloveniya va Turkiyada 40 foizini, AQSh va Isroilda 30 foizini tashkil etadi, ushbu holat kishilarning davlat turli pensiya dasturlariga to‘la jalb etilmaganligini bildiradi. “Turkiyada 1999 yil sentyabrdan 2008 yil oktyabr oyigacha bo‘lgan davrda 7000 kun sug‘urta badali to‘lagan erkaklar 60 yoshdan, ayollar esa 58 yoshdan pensiyaga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu davrda pensiyaga chiqishning eng ma’qul yo‘llaridan biri bu 25 yil davomida 4500 kun sug‘urta badali to‘lashdan iborat. 2008 yil oktyabrdan boshlab pensiyaga chiqish yoshi 60-65 yosh, ayollar uchun esa 58-65 yoshni tashkil etib, sug‘urta badaliga to‘lov 7200 kun qilib belgilangan. Bu davrda pensiyaga chiqishning eng ma’qul yo‘li 65 yosh bo‘lib sug‘urta to‘lovlari 5400 kunni tashkil etgan”[1]. Turkiyada o‘tkazilgan islohotlarning asosida pensiyaga chiqish yoshini yil sayin uzaytirib borish yotadi. Ya’ni o‘tkazilgan islohotlarning deyarli barchasida pensiya chiqish yoshi yildan yilga uzaytirib borilgan. Ammo bu o‘tkazilgan islohotlar natijasida boshqa bir muammo – ishsizlik muammosi, yoshlarni ish bilan ta’minlash muammosi paydo bo‘ldi.

Qozog‘istonda amalga oshirilayotgan pensiya islohotlari tezkor, keskin va samaraliligi bilan ajralib turadi. Pensiya islohotlari natijasi bilan tizim tarkibi uch yil davomida ishlab chiqildi va qabul qilindi. Davlat pensiya islohotlarini maqsadli yo‘naltirishga intildi va e’tiborni uni amaliyotga tatbiq etishga qaratildi. Xalqaro texnik yordam tashkilotlari ***(USAID)*** va xalqaro kredit agentliklari bilan hamkorlikdan qanday natijalarga erishish mumkinligi ifodalandi. Pensiya islohotlari bo‘yicha erishilgan yutuqlar, shuningdek, pensiya ta’minoti bilan bog‘liq muammolar va kelajakda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar muhokama qilindi.

---

[1]Pensions at a Glance. 2013. OECD AND G20 INDICATORS.

Inqiroz davrda aholining pensiyaga iloji boricha barvaqt chiqishi yoki nogironlikni olishga harakat qilganliklari tufayli pensiya tizimi xarajatlarning tarkibida pensiya oluvchilar soni ortadi. Inqiroz davrida odatda mamlakatlar pensiya to‘lovlari miqdorini qisqartirishni xohlamaydilar, ammo o‘rtacha ish haqi pasayish tendentsiyasiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, aksariat mamlakatlarda pensiya fondi daromadlarining keskin kamayishi va xarajatlarining ortishi pensiya to‘lovlarini molilashtirishda taqchillikni keltirib chiqaradi yoki mavjud pensiya fondi kamomadini ko‘paytiradi. Moliyaviy inqirozning pensiya tizimiga potentsial ta’sir ko‘rsatishini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

***14-jadval.***

***Rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya tizimining asosiy ko‘rsatkichlari[1].***

| **Ko‘rsatkichlar** | **Taksimlash tizimida** | **O’zbekiston** |
|---|---|---|
| Pensiya fondiga yagona ijtimoiy to‘lov | 28,0 | 24,8 |
| YaIM da pensiya tizimi xarajatlarining ulushi | 7,2 | 8,0 |
| O’rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqidagi ulushi | 47,0 | 37,5 |

Inqirozlar tahlili va tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ish haqi miqdorining pasayish sur’ati yalpi ichki mahsulotning qisqarishiga nisbatan ikki marta yuqori bo‘lgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish mamlakatlari davlat pensiya tizimini moliyalashtirish borasida kutilmagan holatlarga duch kelganliklari sababli pensiya tizimining asosiy unsurlarini o‘zgartirishga va isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqdilar. Birinchi navbatda, mamlakatlar pensiya fondining moliyaviy holatini, yaxshilash uchun davlat pensiya tizimi daromadlarinig qo‘shimcha manbalarini topish yoki xarajatlarini qisqartirish yo‘llarini izlay boshladilar. Aksariat davlatlarda qo‘llaniladigan ayrim qisqa

[1]Хинц Р., Звинине А.Я., Билецки С., Богомолова Т. Государственные пенсионные системы. Модели тестирования стресса объязатеьныых пенсионных систем в странах со среднем уровнем дохода и в развивающихся странах. Доклад для обсуждения по социальной зашите. Всемирный банк. 2009. сентябр.

muddatli choralarning uzoq istiqbolda qo‘shimcha xarajatlarining ko‘payishiga olib kelishi e’tiborga olindi. Masalan, Rossiya va Ruminiya pensiya to‘lovlari stavkasini qisqartirishdi. Estoniya, Latviya, Litva va Ruminiya jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga pensiya to‘lovlari to‘lanishi rejalashtirilgan pensiya to‘lovlari ortishini to‘xtatdi. Odatda hukumatlar ishsizlik darajasini ortishiga javoban pensiyaga erta chiqish va nogironlikni olishga qaratilgan cheklovlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni qo‘llardilar. Hozirda ishsizlik darajasining ortishi pensiya fondlarining taqchillik darajasini yanada murakkablashtirmoqda. Chunki daromadlar to‘xtovsiz kamaygan holda xarajatlar ortmoqda. Shunday qilib, ayrim mamlakatlarda pensiya to‘lovlari stavkasinig ortishi davlatlarning kelajakdagi javobgarligini yanada oshiradi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining likvidli mablag‘lari etarli bo‘lishni ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimiga ta’siri chuqur tahlil qilish ushbu mamlakatlarning pensiya tizimini isloh etish borasida jamlangan ilg‘or tajribalaridan O’zbekistonda pensiya tizimini rivojlantrish takomillashtirish jarayonida ijodiy foydalanish imkoniyatlari borasida qator xulosalar qilindi.

1. O’zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich isloh etishning strategik kontseptsiyasini ishlab chiqish zarur.
2. O’zbekistonda ko‘p darajali aralash pensiya tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
3. O’zbekistonda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish lozim.
4. O’zbekistonda pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish.

5. O’zbekistonda mavjud pensiya tizimini modernizatsiyalashda pensiya miqdorini mehnat stajiga qarab emas, balki, sug‘urta stajiga, sug‘urta badalini to‘lashga bosqichma-bosqich o‘tish.

## III BOB bo‘yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida uchinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimining quyidagi kamchiliklari namoyon bo‘ldi:

- moliya bozoridagi tebranishlar pensiya jamg‘armalariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.
- moliya bozorining risklari jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armalarining kutilayotgan daromadlarni nisbatan past bo‘lishiga olib keladi.

fond bozorlarini yanada barqarorlashtirish va rivojlantirish kerak.

Pensiya tizimini isloh etishga qaratilgan uzoq muddatga mo‘ljallangan chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak.

Birinchi bosqichda:

– pensiyani indeksatsiya qilishda inflyatsiya sur’atlariga asoslanish;
– pensiyaga chiqishni 65 yoshga oshirish, erkaklar va ayollar uchun ushbu ko‘rsatkichni tenglashtirish;
– pensiyaga barvaqt chiqish imkoniyatlarini kamaytirish;
– davlat pensiyasi to‘g‘risidagi axborotni muntazam ravishda aholiga etkazish.

Ikkinchi bosqichda:

– kapitalni jamg‘arish va pensiya to‘lash bosqichlarida moliya bozorlaridagi tebranishlardan sug‘urtalanish samaradorligini oshirish;

– fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol qo‘llash va inflyatsiya darajasiga nisbatan indeksatsiya qilinuvchi qimmatli qog‘ozlarni sotib olishsh.

O’zbekiston Respublikasida ham davlat pensiya tizimiga qo‘shimcha korporativ, kollektiv va xususiy turlarini shakllantirishni rag‘-batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamg‘ariladigan pensiya tizimida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- pensiya tizimining xususiyati, mazkur tizimning moliyaviy vositalari to‘g‘risida aholidan etarli bilimga ega bo‘lishi talab etiladi;
- jamg‘ariladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab, tizimni yanada aniq tartibga solinishi talab etiladi;
- jamg‘ariladigan pensiya tizimida muvaffaqiyatsiz investitsion qarorlar qabul qilinishi yoki aktivlarni boshqarish xarajatlarining oshishi natijasida jamg‘armalar miqdori kamayadi.

Fikrimizcha, rivojlanayotgan mamlakatlarda inqiroz sharoitida pensiya tizimini rivojlantirish uchun qisqa muddatga mo‘ljallangan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- qisqa muddatli muammolarni hal etish uchun pensiya tizimining uzoq davrga mo‘ljallangan rivojlanish dasturlariga o‘zgartirish kiritish shart emas;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida to‘plangan tajribalarni demografik inqirozga tayyorgarlik ko‘rish uchun qo‘llash kerak.

## XULOSA

O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya va pensiya tizimini rivojlantirish masalalari o‘rganildi, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar va takliflar berildi.

1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, inson manfaatlarini ko‘zlaydi. Aholini samarali ijtimoiy himoyalash deganda, jamiyatning har bir a’zosining turmush darajasini oshirish, o‘z qobiliyatini rivojlantirish, mehnat qobiliyati yo‘qotilgan taqdirda (keksalar, nogironlar, kasallar, bolalar uchun) kafolatlarini ta’minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.
2. O’zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarni moliyalashtirish va ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoit Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va asosiy vazifalarini hamda jamg‘armaning daromadlari va xarajatlarini ilmiy tarzda tahlil etishni, Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining faoliyatini jahon tajribasini hisobga olgan holda rivojlantirishni talab etadi.
3. Mamlakatimizda YaIMning barqarorligi, iqtisodiyotdagi etakchi tarmoqlarning yuqori o‘sish sur’atlari ijtimoiy sohani, jumladan pensiya tizimini rivojlantirishga mustahkam zamin yaratmoqda.
4. Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimining quyidagi kamchiliklari namoyon bo‘ldi:
   - moliya bozoridagi tebranishlar pensiya jamg‘armalariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.
   - moliya bozorining risklari jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armalarining kutilayotgan daromadlarni nisbatan past bo‘lishiga olib keldi.
5. Mehnat haqi hisoblashning muammoli jihatlaridan yana biri - respublikada korxona va tashkilotlarda o‘rtacha ish haqi darajasini oshirish va asta-sekin

rivojlangan davlatlar darajasiga etkazish orqali ijtimoiy jihatdan farovon hayotni yo‘lga qo‘yish masalasidir.

6. O’zbekistonda pensiyalarning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqiga nisbatan qoplash koeffitsenti 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 25,7 foiz, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iborat. Mamlakatimizda 2014 yilda bu ko‘rsatkichni 41 foizga etkazish ko‘zda tutilmoqda.
7. O’zbekiston Respublikasida kelgusida ham pensiya tizimidagi islohotlarni izchillik bilan davom ettirish fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini adolatli tashkil etishga va mukammal pensiya tizimining shakllanishiga xizmat qiladi.
8. O’zbekistonda pensiya tizimini rivojlantirish jarayonida ijodiy foydalanish imkoniyatlari borasida takliflar qilish mumkin:
   – O’zbekistonda ko‘p darajali aralash pensiya tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
   – O’zbekistonda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish lozim.
   – O’zbekistonda pensiya tizimidagi turli imtiyozlar berishni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish.
   – O’zbekistonda pensiya tizimini modernizatsiyalashda pensiya miqdorini mehnat stajiga qarab emas, balki, sug‘urta stajiga, sug‘urta badalini to‘lashga bosqichma-bosqich o‘tish.
9. Pensiya tizimini isloh etishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak.
   – pensiyani indeksatsiya qilishda inflyatsiya sur’atlariga asoslanish;
   – pensiyaga chiqishni 65 yoshga oshirish, erkaklar va ayollar uchun ushbu ko‘rsatkichni tenglashtirish;

- davlat pensiyasi to‘g‘risidagi axborotni muntazam ravishda aholiga etkazish.
- kapitalni jamg‘arish va pensiya to‘lash bosqichlarida moliya bozorlaridagi tebranishlarda sug‘urtalanish samaradorligini oshirish;
- fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol qo‘llash, inflyatsiya darajasiga nisbatan indeksatsiya qilinuvchi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish.

10. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini investitsion faoliyatga joylashtirish orqali qo‘shimcha daromad olishni rag‘batlantiruvchi mexanizmni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
11. Pensiya jamg‘armasiga ajratmalar va ushlanmalar summasidan ishlovchi nafaqa yoshidagilarga to‘lovlarni ayrim jihatlariga ham o‘zgartirishlar kiritish lozim. Bizning fikrimizcha, pensiya yoshiga chiqqan ishchi va xizmatchilarga tayinlangan pensiyalarni moliyalashtirishdagi muammmolarni ularning pensiya summasini 50 foizga kamaytirish orqali emas, balki jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini izchil va ta’sirchan mexanizmini shakllantirish orqali ham hal etish mumkin, deb o‘ylaymiz. Negaki to‘liq stavkada ishlovchi pensiya yoshidagi ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ajratmalarining joriy qismi unga to‘lanadigan pensiya summasini to‘liq qoplaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

**I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2013. - 40 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: Adolat. 2013. -406 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013 yil. 27 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi Qonuni. 2013 yil. 27 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 2004 yil. 2 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
7. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2008 yil. 14 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
8. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish haqida»gi Qonuni. 2012 yil 5 yanvar. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

## II.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi me’yoriy hujjatlari

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdagi «O’zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1887-son Qarori.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasi 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099 son qarori.
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi “Obod turmush yili Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 1920-son Qarori.
12. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qarori.
13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huqukiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son Qarori.
14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 177-son Qarori.
15. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 20 avgustdagi 65-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan “O’zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha” Yo‘riqnoma.

16. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 23 fevralda 2200-son bilan ro‘yxatga olingan “Xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me’yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

**III. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.**

17. Karimov I. A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. // Xalq so‘zi. 2011 yil. 8 dekabar.
18. Karimov I. A.“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: “O’zbekiston”. 2012. -36 b.
19. Karimov I. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.
20. Karimov I. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi \\ 2013 yil. 8 dekabr.
21. Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim

ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O’zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

**IV. Asosiy adabiyotlar.**

22. Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Mehnat. 2011. -535b.
23. Abulqosimov H. va boshqalar, Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.O’quv qo‘llanma. -T.: “Akademiya”. 2012. -455 b.
24. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник. -М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2012. -703 с.
25. Ветлужских Е. Мотивация и оплата труда. Инструменты. Методики. Практика. –Москва. Алыпина Паблишер. 2013. -152с.
26. Ветлужских Е. Система вознаграждения. Как разработать цели и мотивация оплата труда. . –Москва. Алыпина Паблишер. 2013. -217с.
27. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.
28. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
29. Mexmonov. S.U. Budjet hisobi. O’kuv ko‘llanma. - T.: “Fan va texnalogiya”. 2012. - 352 s.
30. Тютюриков Н.Н. Налоговая системы зарубежныых стран. Учебник. -М.: Издательство-торговая корпорация Дашков и К.2010. –С. 266.

**V. Qo‘shimcha adabiyotlar**

31. Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с
32. Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2011. -703 с.
33. Pensions at a Glance 2013 OECD AND G20 INDICATORS.

34. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. - 396с.
35. Xaitov A., Ziyadulaev M. O’zbekistonda pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O’quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.
36. Щербаков В.А., Костяева Е.В. Страхование. Учебное пособие.- М.: КНОРУС. 2012. -312 с.
37. Qosimova G.A. G’aznachilik. O’quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. - 487 b.

**VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar, dissertatsiya avtoreferatlari.**

38. Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. – B.8-12.
39. Alimova G. Ijtimoiy sug‘urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
40. Alimov N. Yangi kodeks loyihasi muhokamada. \\ Birja. -Toshkent. 2013. 25 noyabr. №137.
41. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetare Fund Fiscal Attairs Department Technical Guidance Note. 2010. -201 p.
42. Bekmatova P.Z. Budjet-soliq siyosati samaradorligi ijtimoiy hamkorlikning taraqqiyot omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.76-78.
43. Бакайбаева А. Начиление и выыплата заработой платы и приравненных к ней платежей в бюджетных оргнизациях. // Иктисод ва молия. - Тошкент.2013. № 7. – Б.47-53.
44. Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.20-31.

45. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. − Toshkent, 2010.- № 4.− B. 21-27.
46. Mirzakarimova M. Nogironlar bandligini muammosini hal qilishda ijtimoiy sheriklik. // Iqtisod va moliya. - Toshkent.2013.
№ 7. – B.35-41.
47. Mannapova A.A. Budjet tizimida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda O’zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining o‘rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel.
48. Raximov M. Mehnatga haq to‘lash hisobidagi muammoli jihatlar. // Moliya. –Toshkent. 2014. -№1. – B.108-112.
49. Raxmatullaeva N. O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. // Moliya. -Toshkent. 2013. № 5. – B.117-121.
50. Nuritdinova V. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarini moliyalashtirish masalalari. // Moliya. -Toshkent. 2013. № 5. – B.11-14.
51. Nurumbetov R.K. Mintaqalarda pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish masalalari. Mintaqalarni barqaror rivojlan-tirish va milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatligini ta’minlash masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. Toshkent. Toshkent Moliya instituti. 2012 yil. 17 may. –B.366-369.
52. Normurodov U. Qishloq aholisi obod turmush sharoitining shakllanishida savdo-sotiqning o‘rni. \\ Birja Ekspert. -Toshkent. 2013. № 9. –B.38-41.
53. Nurmuxamedova B. Aholi turmush farovonligini oshirishdagi ijtimoiy hamkorlik yo‘nalishlari. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.76-78.
54. Tolametova Z. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi turmush darajasini oshirish. // Iqtisod va moliya. - Toshkent.2013.

№ 5. – B.42-47.

55. Yusupov B. Budjet kodeks loyihasi taqdimoti. \\ Soliq va bojxona xabarlari. -Toshkent. 2013. №33.
56. Sharopova M. Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda byudjetdan moliyalashtirish tamoyillarining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2013. №1. – B. 32-35.
57. Uroven bezrabotitsiv ES27 i Evrozone. \\ Mejdunarodnaya ekonomika. – Moskva. 2013. № 6. –S.71-74.
58. Хинц Р., Звинине А.Я., Билецки С., Богомолова Т. Государственные пенсионные системы. Модели тестирования стресса объязатеьныых пенсионных систем в странах со среднем уровнем дохода и в развивающихся странах. Доклад для обсуждения по социальной зашите. Всемирный банк. 2009. сентябр.
59. Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. \\ Moliya. 2013. 3-son. 108-112b.
60. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarishda Budjet Kodeksining ahamiyati. \\ Moliya. . -Toshkent. 2014. №1. –B.19-23.
61. Qosimova G.A. Aripov K. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida xorijiy tajribalardan foydalanish. \\ Biznes-Ekspert. 2013. 9-son. 50-52b.
62. O'rozov U. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. \\ Moliya. -Toshkent. 2014. №1. –B.24-29.
63. O'roqov U. Yu., Mannapova A.A. Budjet tizimida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining o'rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.155-158.
64. Qosimova G.A., Dadaxonov D.G'. O'zbekistonda ijtimoiy dasturlar asosida aholi turmush farovonligini oshirish. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida turmush sifatini yaxshilashning ijtimoiy

omillari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 19may. -B.213-215.

65. Qosimova G.A., Dadaxonov D.G’. Ijtimoiy himoyalash tizimida soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik roli. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag‘batlan-tiruvchanlik rolini oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 22 fevral. -B.10-12.
66. Qobilov B.A. Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik rolini oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 22 fevral. -B.279-280.

## VII. Internet-sayti ma’lumotlari

www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

www.treasury.uz Kaznacheystvo Ministerstva Finansov Respubliki Uzbekistan.

www.gov.uz O’zbekiston Respublikasining Hukumat portali.

www.mf.uz O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

www.stat.uz O’zbekiston respublikasi Davlat Statistikasi Qo‘mitasi.

http://www.soliq.uz/uz O’zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo‘mitasi.